

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM BAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BOSHLAHG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etildi”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

dekani _____ dots. B. Jo'rayev

“__ “ _____ 2013 yil

Pedagogika-psixologiya fakulteti

5141600- “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” yo'nalishi bitiruvchisi

Sattorova Muxlisaning

**“Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda xalq
topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: доц. N.Oripova

Qarshi – 2013

MUNDARIJA

Kirish.....	3
 I-BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA XALQ TOPISHMOQLARI ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING NAZARIY ASOSLARI	
 1.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berish pedagogik muammo sifatida.....	7
 1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning mavjud ahvoli.....	15
 II-BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA XALQ TOPISHMOQLARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
 2.2. O‘quvchilarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning mazmuni.....	22
 2.2. O‘quvchilarga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berishning shakl va usullari	33
 Xulosa.....	56
 Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	58

KIRISH

Respublikamizda huquqiy va demokratik jamiyat qurish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan bir paytda ma'naviy jihatdan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish hamda ularni ona yurtini sevrishga, moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylashga, atrof-muhit tozaligini ta'minlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Modomiki, kelajagimiz yoshlar qo'lida ekan, boshlang'ich sinfdayoq o'quvchilarni tabiatni asrab-avaylashga oid ekologik bilimlar bilan qurollantirish va tabiat bilan yaqindan tanishtirib borish, ularga ekologik tarbiya berish, shu orqali ularning borliq to'g'risidagi tasavvurini boyitish, dunyoqarashini o'stirish, hayotiy tajribalarini mustahkamlash yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, o'quvchilarga inson umri tabiat bag'rida kechishini, inson va tabiatning o'zaro bog'liqligini, ularning bir-biriga nisbatan ta'sir ko'rsata olishini hamda bu ta'sirlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini anglatish, shu orqali bolalar o'rtasida ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish, yosh qalblarda ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish-bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat bilan tanishtirish va ularning ekologik tarbiyasini amalga oshirishning qulay pedagogik usullarini ishlab chiqish va didaktik imkoniyatlarga boy tarbiyaviy vositalarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Bu muammoning yechimida xalq og'zaki ijodiga mansub badiiy janrlardan biri - o'quvchilarning zehni charxlash, aqliy qobiliyatini va mantiqiy tafakkurini o'stirish, so'z boyligini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida yaratilgan, qadim zamonlardan beri xalq pedagogikasida muhim tarbiya vositalaridan biri sifatida tan olinib, keng qo'llanilib kelinayotgan topishmoqlardan o'rinli va unumli foydalanish ijobiy natija beradi. Binobarin, topishmoqlar o'z janriy tabiatiga ko'ra ixcham shaklli, mazmunan teran va hayotiy-badiiy zavqi baland namunalardir. Ular ko'proq tabiat va jamiyat hodisalari, hayvonlar va o'simliklar mavzularida yaratiladi. Shuning uchun topishmoqlar tarbiyaviy-didaktik imkoniyatlarga boy bo'lib, bolalar diqqatini o'ziga tez jalb qiladi va ular xotirasiga tez o'rnatib qoladi. Topishmoqlar deyarli barcha yoshdagi bolalarning qiziqishini o'ziga jalb etuvchi ma'naviy-axloqiy o'yin namunasidir. Ular o'quvchilarning tevarak-atrofga kuzatuvchanligini oshiradi, tabiat voqea-hodisalarining sodir bo'lish sabablarini aniqlashga qiziqishlarini kuchaytiradi. Natijada o'quvchilarning idroki, tasavvuri, qobiliyati, topqirligi, mustaqilligi rivoj topadi. Ayniqsa, topishmoqlar bolalarga borliqdagi narsa-hodisalarining yaxlit ko'rinishida qismlardan, qism ko'rinishida esa yaxlitlikdan tarkib topishini idrok etishlariga, olam bir butunligini anglab yetishlariga, hayot go'zalliklaridan ma'naviy zavq olishlariga va shu go'zallikni qadrlashlariga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu muammo hukumatimizning siyosati bilan bog'liq bo'lganligi tufayli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ona va bola» davlat dasturida puxta ishlab chiqilgan. Shuningdek, davlatimiz rahbarining deyarli har bir asarida, ma'ruzalarida bu muammo alohida tilga olinadi. Jumladan, uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida shunday deyilgan: Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. So'nggi yillarda atrof-muhitni, tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish haqida qator qonunlar hamda ko'plab meyoriy metodik hujjatlar qabul qilindi. Bu qonunlarda Respublikamizning hozirgi ekologik-iqtisodiy siyosati umuminsoniy ekosistemaning muhofazasini ta'minlashga, inson hayoti mohiyatining barcha qirralarini kafolatlashga qaratilgan.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari" deb nomladik.

Tadqiqot maqsadi. O'quvchilarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning nazariy asoslarini aniqlash va ulardan foydalanish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti. O'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. O'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning mazmuni, yo'llari usullarini belgilashdan iborat.

Tadqiqot vazifasi:

-xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiya berishning pedagogik muammo ekanligini asoslash;

-mavzuga oid ilmiy pedagogik manbalarni tahlil qilish;

-boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning mavjud ahvolini aniqlash;

-o'quvchilarni xalq topishmoqlariga javob topishga tayyorlashning eng samarali yo'llari, vosita va usullarini ishlab chiqish;

Tadqiqotning ilmiy farazi: - Agar,

- boshlang'ich ta'lim jarayonida xalq topishmoqlaridan foydalanib, o'quvchilarda ekologik tushunchalarni shakllantirish imkoniyatlari aniqlansa;

- tatqiq etilayotgan jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi shakl, metod va vositalar aniqlansa;

- ularning samaradorligi tajriba ishlari vositasida tasdiqlansa, kutilgan samaradorlikka erishish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezidentimiz I.Karimovning milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish, ona-yurt tabiatini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash xususidagi yondashuvlari, asarlari, Sharq mutafakkirlarining ekologik tarbiyaga oid fikr-mulohazalari, pedagogika, ijtimoiy fanlar, folklorshunoslik va boshqa sohalarda shu yo'nalishda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari.

Nazariy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar sifatini oshirishda foydalanish mumkin.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Boshlang'ich sinflarda xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiya berishning pedagogik muammo ekanligi;

2. O'quvchilarni xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiyalashning ahvoli;

3. O'quvchilarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ;

4. O'quvchilarga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berishning shakli, usullari, metodlari.

Tadqiqot metodlari

1. Nazariy tag'lil

2. Kuzatish

4. Savol-javob, suhbat, test

I-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA XALQ TOPISHMOQLARI ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1.Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berish-pedagogik muammo sifatida

Ekologik tarbiyaning ilk ildizlari insoniyatning qadim turmush tarziga borib taqaladi. O'sha kezlardan insonlar tabiat bilan ehtiyotkorona muomalada bo'lishga intilishgan va buni yosh avlod ongiga singdirishga harakat qilishgan.

Ibtidoiy odam o'z hayotining tabiat bilan chambarchas bog'liqligini his qilgani bois, hatto olamning asosida ham to'rtta tabiat unsuri-yer, suv, havo, olov (quyosh) yotadi deb qaragan va aynan shu tabiat resurslarini ko'proq asrab-avaylashga intilgan. Ularning hayotiyiligiga qattiq ishongan. Qadimgi insonning bunday ibtidoiy tasavvur-tushunchalari uning o'z aqliy va jismoniy kuchiga ishonchi orta borgani sayin o'zgara boshlagan. Endi inson o'z aql kuchiga tayanib, tabiatdan juda ko'p narsalar talab qila borgan. Tabiatdagi narsa-hodisalarga o'z ta'sirini o'tkazib, turmush tarzi uchun turli narsalar bunyod etishga kirishgan. Jumladan, tog'u-toshlar orasidagi g'orlardan o'ziga boshpana topgan ibtidoiy odam tevarak-atrofga razm solib, undagi qushlarning, arilarning tajribasini asta-sekin o'zlashtira boshlaydi. Shu tariqa imoratlar bunyod etishga kirishgan inson endi shunga zarur bo'lgan qurilish materiallarini ham bevosita o'sha tabiat qo'ynidan ola boshlagan. Shunda ilk bor daraxtlar olamiga insonning xuruji boshlangan. Yoki g'orlarda yashab, turli jonivorlarning go'shti bilan oziqlanib, tirikchilik o'tkazib kelayotgan ibtidoiy inson uchun hayvonlar ham homiy-madadkor sifatida totemistik tasavvur uyg'otgan. U katta va yirik hayvonlarni ovlaganida juda quvongan. Shu asosda unda kichik narsadan ko'ra katta narsaning manfaatliroq bo'lishi haqida tushuncha paydo bo'la boshlagan. Mana shu alfozda qadimgi inson tasavvurida hajm tushunchasi asta-sekin paydo bo'la boshlagan.

Xullas, qadimgi ajdodlarimiz tabiatni jiddiy kuzatar ekan, undan o'zi uchun foydali ko'p narsalarni kashf etishga muvaffaq bo'lgan. Shu kuzatishlar zaminida inson tabiatdan nusxa ko'chirib, juda ko'p bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Masalan, ari uyasiga qarab, ko'p qavatli uylar qura boshlagan. Qushning parvozi samolyot yaratilishiga turtki bo'lgan. Quyoshga qarab, lampochkalar kashf etilgan va hokazo. Bularning barchasi kuzatish-tabiatni bilishning, tushunish va his etishning eng asosiy vositasi ekanligini namoyon etadi. Shunday ekan, hozirgi yoshlar ham tabiat bilan yaqindan oshno tutinsinlar, uni jiddiy kuzatib, o'rganib borsalar, hali ko'p yangi narsalarni kashf qilishga musharraf bo'lishlari mumkin. Chunki tabiat azaldan insonni to'ydirib, yedirib, ichirib, kiyintirib kelayotgan ona kabi g'amxg'r va mehribondir. U haligacha insondan o'z saxovatini darig' tutmay kelayotir. Bunga javoban, insoniyat ham ona kabi mehribon tabiatni har tomonlama asrab-avaylashi, uning boyliklaridan oqilona va rejali foydalanishi juda muhimdir.

Demak, tabiatni asrash har kimning insoniy burchidir. Tabiatni asrab avaylash qadimiy ajdodlarimizdan merosdir. Xalqda ekologik tarbiyani amalga oshirishning, hz yo'llari bo'lgan. Bu boradagi xalqona an'analarni o'rganish va ularning hozirgi turmush tarzimizga mos keladigan tomonlarini aniqlab, ekologik tarbiya jarayonida foydalanish hziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xalq orasida keng tarqalgan ayrim tabu-ta'qiqlar ham bevosita ekologik tarbiyaga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Masalan, yong'oq, olma, o'rik, tut va hokazo mevali daraxtlarni chopish ta'qiqlanadi. Chunki xalq nazdida bu daraxtlar bir muncha

tilsimlashtirilgan. Ularda yaxshi yoki yomon ruhlar manzil qurib olishi mumkin deb qaraladi. Shuning uchun bu daraxtlar bemavrid chopib tashlansa, ularda manzil qurgan ruhlar g'azabga kelib, chopgan insonga zarar yetkazishi mumkin deb tasavvur qilinadi. Qolaversa, yana ushbu daraxtlar mevali bo'lgani uchun insonga rizq-ro'z hadya etadi. Shu bois uni chopib tashlash bilan inson o'z rizqini o'zi qiygan bo'ladi. Yoki xalq farzandni mevaga qiyos etgani uchun mevali daraxtlarga ozor yetkazish bilan inson o'z farzandiga ozor yetkazishi mumkin deb qaraladi.

Shunday qilib, xalq orasida suvni, ayrim jonivorlarni, o'simlik va daraxtlarni asrab-avaylash maqsadida juda ko'p tabu-ta'qiqlar yaratilgan bo'lib, yoshlarga ekologik tarbiya berishda samarali foydalanish mumkin.

Xullas, ekologik tarbiya insoniyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Dastlab ibtidoiy tuzum sharoitida shakllana boshlangan ekologik tarbiya mezonlari qadimgi odamning animistik va totemistik tasavvurlari asosida targ'ib qilina boshlangan bo'lsa, keyinchalik uning qo'rquvi va ixlosi zaminida yaratilgan tabu-ta'qiqlar ko'magida singdirila boshlandi. Nig'oyat, insoniyatning badiiy tafakkuri rivojlanishi bilan uning donoligi, aqlu-zakovati bilan yaratilgan ertak, qo'shiq, topishmoq, maqol kabi xalq og'zaki ijodi namunalarida ekologik tarbiyaga oid ayrim fikr va qarashlar targ'ib qilina boshlandi. Xususan, bunda topishmoqning roli va ahamiyati beqiyosdir. Topishmoq o'z xususiyatiga ko'ra tabiat predmetlari va hodisalarini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki yashirin tilda ifodalab kelib, u yoki bu tabiat narsa-hodisalari haqida aniq ma'lumot bera olish imkoniyatining mavjudligi tufayli uzoq o'tmishda yoshlarga ekologik bilim va tarbiya berishda, ularning tevarak-atrofga nisbatan kuzatuvchanligini va g'amxo'rligini, ekologik madaniyatini oshirishda juda qo'l kelgan. Qizig'i shundaki, topishmoqqa xos xalqona an'ana hozirgacha o'z qimmatini yo'qotmay kelayapti.

O'rta asrlar tuzumi sharoitida ekologik tarbiya ko'proq islom dini talablari bilan bog'liq olda targ'ib va tashviq qilindi. Xalqning ona tabiatni asrab-avaylash to'g'risidagi o'y-kechinmalari, qarashlari, tasavvur-tushunchalari islom dini hukmronligi davrida yanada mustahkamlandi. Aytaylik, namoz orqali ekologik tarbiyaning eng muhim sharti shaxsiy gigiyenaga keskin rioya qilish qat'iy talabga aylandi. Shuningdek, islomning eng muqaddas kitobi Qur'oni Karimda ham, hadislarda ham ekologik tarbiya zaruriyati va shartlari xususida juda ko'p qimmatli fikr-mulohazalarga duch kelish mumkin. Chunonchi, «Yeru osmonda qanchadan-qancha alomatlar bor. Lekin ko'p odamlar ularga nisbatan beparvolik va g'aflat bilan o'tib ketaveradilar,- deb qayd qilinadi. Bundan shu ravshanlashadiki, hatto Ollohni tanish va unga to'la imon keltirish uchun ham borliqqa, atrof-muhitga ibrat nazari bilan qarab, tabiat muvozanatini saqlab qolish to'g'risida har bir inson qayg'urmog'i shart.

O'tmishning buyuk mutafakkirlari Abu Rayg'on Beruniy, Ismoil Jurjoni, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar tabiatni asrash, unga mehr ko'zi bilan qarash lozimligini qayta-qayta uqtirganlar. Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» kitobida yil fasllarining tabiati va undagi o'zgarishlar, havoning tabiiy holatiga zid bo'lgan yomon o'zgarishlarning ta'siri, ayrim kasalliklar va ularni davolash uchun ishlatiladigan sodda va murakkab dorilarga oid qator tavsiyanomalar bergan.

Beruniyning oxirgi asari «Dorivor o'simliklar haqida» («Saydona») kitobida Sharqda, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifi berilgan. Forobiy olamning turli-tumanligini, tabiatning nihoyatda boyligini e'tirof etib, ularning asosida 4 unsur-yer, suv, olov va havo yotishini, shu bilan birga, olamning ibtidosi, boshlang'ich yaratuvchi kuchdan nurlanish yordamida vujudga kelganligini ta'kidlaydi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, moddiy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. U o'simlik va insonga oid xususiyat va qobiliyatlarni bir butun holda quvvat atab, uni o'sish quvvati, hayvoniy quvvat va insoniy quvvat tarzida uchga ajratadi. «Baxt saodatga erishuv haqida»gi risolasida bilimlarni o'rganish tartibi birma-bir sanab o'tiladi: bilish zarur bo'lgan ilm, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi ilmlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman jonli

tabiat-o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi. Uningcha kamolga yetish quruq intilishgina bo'lib qolmasdan, balki tabiatdagi juda ko'p narsalardan foydalanish yo'li bilan qo'lga kiritiladi.

Jurjoni tabiatdagi hech bir hodisa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta'kidlaydi. Hamma mavjud ashyolardagi butun harakat va o'zgarishlar faqat makon va zamondagina ro'y berilishini e'tirof etadi. Jurjoni dunyoqarashiga xos xususiyat butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog'langan bo'lakchalardan iborat yagona tana sifatida ta'riflashdir. Uning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to'rt unsur, ya'ni olov, havo, suv va tuproq yotadi. Uch unsurdan iborat boshqa jismlar, ya'ni metallar, o'simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to'rt unurning bir-birlari bilan qorishishining hosilasi sifatida kelib chiqqandir. To'rt unsur doimo harakatda ekanligidan o'zgaruvchan bo'lib, biri ikkinchisiga aylanib qolishi mumkin, havo suvga, suv tuproqqa va hokazo.

SHo'rolar tuzumi davrida tabiatni asrab-avaylash yo'nalishida qilingan eng xayrli ish tobora yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlar turlarini aniqlab, ularni saqlab qolishga qaratilgan «Qizil Kitob»ning tashkil qilinishi bo'ldi, xolos. Aks holda sho'rolar tuzumi davrida tabiatga juda katta zarar yetkazildi. Buni O'rta Osiyo misolida ko'rmoqchi bo'lsak, kommunistik mafkura talabi bilan paxta yakka hokimligining o'rnatilishi oqibatida Oroldek buyuk va qudratli dengiz halokatga uchragani, undagi qanchadan-qancha noyob suv jonivorlari, baliq turlari qirilib ketgani, iqlim o'zgargani, tuproq tarkibida jiddiy salbiy o'zgarishlar yuz bergani hodisalarini eslamaslikning iloji yo'q. Paxtaga sepiladigan dori-darmonlar ham havoning ifloslanishiga, tuproq qatlamining zararlanishiga, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga olib keldi. Natijada bolalar o'limi soni oshdi, inson umrining o'rtacha yashash ko'rsatkichi kamaydi. Juda ko'p noyob jonzorlar (kiyik, qirg'ovul, jayron va hokazo) ov qilish tufayli qurbon bo'lib, son jihatidan kamayib, nihoyat «Qizil Kitob»dan joy oldi. Shuningdek, yana ushbu o'lkadagi tabiiy qazilma boyliklar (gaz, ko'mir, rangli metallar va g'k.)dan ratsional foydalanilmadi. Ular pala-partish holda qazib olinib, tashib ketildi. Xalqimiz mustaqillikka erishgach davlat ahamiyatiga molik qator qarorlar qabul qilindi. Shu vajdan bizda ekologik tarbiya ijtimoiy-iqtisodiy va davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi va ta'lim sohasida Respublika doirasida amalga oshirilayotgan asosiy tadbirlardan sanaladigan bo'ldi.

Bolalar qalbida tabiatga muhabbat qancha erta uyg'otilsa, ularning tabiat bilan bog'lanishlari shunchalik uzviylashadi. Bola tabiatga erta mehr qo'yadi. Bu, shubhasiz, tarbiyachilar va kattalarning faoliyati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, insonni o'rab olgan olamning murakkabligini anglashlariga, tabiat inson turmush tarziga ta'sir etuvchi vosita ekanligini tushunishlariga, bugunimiz va ertamiz uchun naqadar muhimligini bilib olishlariga yordam beradi. Tabiatdagi hamma narsa kichkintoylar uchun qiziqarli va sirli bo'lib, bamisoli topishmoqqa o'xshab ketadi. Ular shu topishmoqlarni bilishga, sabablarini anglashga va bu haqda fikrlashga ehtiyoj sezadilar.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish o'ta muhim muammolardan biri bo'lib, unga qiziqish XX asrning 30-yillaridan boshlangan bo'lsa-da, hozirgacha o'z ilmiy yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. O'zbek xalq topishmoqlarini ekologik yo'nalish asosida tasniflash, ulardan foydalanishning samarali vosita va usullarini ishlab chiqish, bolalarni xalq topishmoqlariga javob topishga o'rgatish va o'quvchilarda topqirlik, xozirjavoblik xususiyatlarini hamda axloqiy-ekologik dunyoqarashini shakllantirishi singari masalalarni ilmiy nuqtai nazardan hal etish ko'p sonli o'qituvchilarga metodik yordam bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni»da respublikaning yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish qonun bilan kafolatlanganligi qayd qilingan. Shu bois kichik yoshdagilarga ekologik ta'lim berish bugungi kunning eng muhim pedagogik muammosiga aylandi. Ekologik ta'lim-tarbiya xalq ta'limining barcha bo'g'inlarida, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim muassasalarida amalga oshirilishi zarur jarayonlardan sanaladi.

Yer yuzida ekologik holatning ma'lum darajada buzilishi. Ma'lumki, keyingi yillarda ekologik holatning yomonlashuvi inson ruhiyatiga, salomatligiga, irsiyatiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Ayniqsa, mintaqamizda Orol dengizi bilan bog'liq fojealar butun insoniyatga xavf tug'dirmoqda. Bu tabiat va iqlimga keskin tag'sir qilmoqda. Hozirgi davrda planetamizda 10 million tonna foydali qazilma qazib olinmoqda, 800 million tonna turli metallar eritilmoqda, 60 million tonna sun'iy materiallar sintez qilinmoqda, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan 500 million tonna mineral o'g'itlar, 3 million tonna turli pestitsidlar, zaharli moddalarning uchdan bir qismi suv havzalarini, atmosfera havosini bulg'atmoqda.

Yana bir ekologik xavf atmosferada azon qatlamining kamayib ketganligi va ayrim o'rinlarda azon tuynugi hosil bo'lishiga daxldordir. Yer yuzidan 15-40 km yuqorida joylashgan bu qatlam planetamizdagi hayotni muhofaza qilib kelayotgan edi, ammo keyingi yarim asr ichida insoniyat atmosferaning azon qatlamini yemiradigan kimyoviy birikmalarni havoga chiqarib, o'ta nozik tabiiy muvozanatga zarar yetkaza boshladi. Qolaversa xilma-xil ko'p sonli zavod va fabrikalar, elektr stansiyalari, kosmosga uchirilayotgan apparatlar chiqarayotgan gaz, tutun va tarqatayotgan radiatsiya hamda harorat ta'sirida yer sharida ob-havo 2-2,5 daraja ko'tarilgani e'tirof etilmoqda. Buning natijasida Shimoliy muz okeanida asrlar davomida qatlanib yotgan katta muzlikning parchalanib eriy boshlagani suv toshqinlari xavfini tobora kuchaytirayapti. Bu ham aslida insonning tabiatga zo'ravonlarcha noto'g'ri munosabatining oqibati bo'lib dahshatli ekologik xavfdan darak bermoqda.

O'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning yana bir zaruriyati mintaqamizda turli xil kasalliklarning ko'payib ketishi bilan uzviy aloqadordir. Tibbiy statistika ma'lumotlariga qaraganda, Orol bo'yi hududlarida yashovchi aholi o'rtasida yurak ishemiyasi, xafaqonlik, o'pka, jigar, buyrak va asab xastaliklari, allergiya, endokrin, yuqumli (o'tkir ichak, qorin tifi, paratif, A virusli gepatit) kasalliklar boshqa hududlardagiga nisbatan keskin oshgan. Ayniqsa, bolalar o'rtasida bu xastaliklar ko'p tarqalmoqda. Sog'lom bolalarning tug'ilishi uchun zarur sharoitning yetishmasligi va ona organizmining salbiy tashqi ta'sirlarga qarshi kurashish kuchining susayib borishi, tuproq qatlamlarining ifloslanishi ham ekologik ta'lim-tarbiyani zaruriyatga aylantirayapti.

Ma'lumki, dehqon tuproq unumdorligini oshirishi uchun uning holatini yaxshilashi yoki aksincha, undan foydalanish qoidalarini buzib, uni ishdan chiqarishi mumkin. Keyingi yillarda yerni sho'r bosishi, tuproq eroziyasining ro'y berishi yoki aksar vaziyatlarda yerning botqoq holga kelib qolish holatlari ko'p uchramokda. Masalaga tabiatni muhofaza qilish nuqtai nazaridan yondoshsak, bu ko'ngilsiz hodisalar tuproqdan noto'g'ri foydalanish natijasida ro'y bermoqda. Sanoat korxonalari, transport, kommunal-maishiy chiqindilar tuproqni ifloslantiradi. Ayniqsa, tog'-kon sanoati chiqindilari tuproqni butunlay ishdan chiqarmoqda. Tuproqqa tushgan simob, ko'rg'oshin va boshqa zaharli birikmalar o'simliklarga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni nobud bo'lishga olib kelmoqda. Tuproqning bunday ifloslanishi odamlarda turli kasalliklarni qo'zg'ab, yomon oqibatlarni keltirib chiqarayapti.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning yana bir zaruriyati «Qizil kitob»ga kiritilayotgan o'simlik va hayvonlar sonining ko'payib borishiga daxldordir. Ma'lumki, uzoq yillar davomida O'zbekiston adirlari va tog'laridagi hayvonot olami ancha kamaydi; o'simliklar dunyosi va o'rmonzorlar g'oyat qisqardi. Xususan, cho'l va adirlarda o'suvchi ko'pgina o'simliklardan noto'g'ri foydalanish yoki ularni o'tin uchun kesish natijasida nabotot olami ancha siyraklashdi. Saksovul, qandim, quyonsuyak, cherkez, uvoq, bodomcha, Zarafshon va Turkiston archalarining «Qizil kitob»ga kiritilganligiga ancha yillar bo'ldi. So'nggi 50 yil ichida sut emizuvchilarning 36 turi, qushlarning 90 turi bu kitobdan o'rin oldi. Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan o'simlik va jonivorlarning hayotini saqlab qolish kichik yoshdan boshlab bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishni zaruriyatga aylantiradi. Ekologik tarbiya ijtimoiy-iqtisodiy va muhim davlat ahamiyatiga molik masalalardan biri bo'lib, ta'lim sog'asida Respublika doirasida amalga oshirilayotgan asosiy tadbirlardan sanaladi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning mavjud ahvoli

Tadqiqotimiz vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim-tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning hozirgi holatini o'rganish edi. Shuningdek, o'quvchilarga ekologik tarbiya berishda dastur va qo'llanmalar qanday imkoniyatga ega ekanligini aniqlash, o'qituvchilarning qo'lga kiritgan tajribalarini o'rganish, tahlil qilish ham bizning asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Ma'lumki, o'quvchilarga beriladigan ekologik ta'lim-tarbiyaning mazmuniga ko'ra o'quvchilar: a) yer, osmon, osmon yoritgichlarini, havo, suv resurslarini, bulut, yog'ingarchilik turlarini, tuman, shamol, chaqmoq, momaqaldiraq kabi tabiat hodisalarini; b) o'simlik va hayvonot turlarini; v) qushlar va parrandalarni; g) hasharot va sudralib yuruvchi jonzotlarni va hokazolarni bilishi, tanishi, ularning inson hayotida tutgan o'rini anglab yetib, asrab-avaylashga intilishiga erishmoq lozim. Bu ko'nikmalarni hal qilishda qulay imkoniyatga ega. Aksariyat topishmoqlar esa, aynan shu mavzularda yaratilgan. Kuzatishlar bizni shunday xulosaga olib keldiki, o'quvchilar ta'lim jarayonida mevalar va sabzavotlar, hayvonlar, qushlar, gullar xususida bir qator topishmoqlarni biladilar. Biz mavjud ahvol haqida tasavvur hosil qilish maqsadida o'quvchilarga topishmoqlar berib, ularga javob berishlarini taklif qildik. Chunonchi, Qarshi shahridagi 34-o'rta umumta'lim maktabida tahsil olayotgan o'quvchilarga 34 ta ekologik mavzudagi xalq topishmoqlari berildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning 60-65 foizi berilgan topishmoqlarga to'g'ri javob topishga erishdilar. Kengroq qaralsa, bu ommaviy hol emas, albatta.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologiyaga oid xalq topishmoqlarini bilish darajasini aniqlash maqsadida kuzatish, og'zaki so'rovnomalar singari usullardan foydalandik. Tadqiqotning ilk davrida 10 ta dars mashg'uloti kuzatildi. Mashg'ulotlarni kuzatishda o'quvchilarning tabiat va uning muhofazasiga oid nechta topishmoqlarni bilishi, bu topishmoqlarning tematik rang-barangligi, ularga javob topish malakasi, topishmoq talabini tushunishi, topishmoqlarni yechish jarayonida o'quvchilarning faollik darajasi singari qator masalalar bilan qiziqdik. Natija esa, shunday xulosaga olib keldiki, o'quvchilar ekologik mavzuda kam topishmoqlar biladilar. Ko'pgina bolalar topishmoqning o'zini bilsalar-da, mazmunini teran anglamaydilar. Ayniqsa, topishmoq zamirida yashiringan ma'noni ilg'ashda bolalar jiddiy qiynaladilar. Masalan, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan, keng iste'moldagi «Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha» (anor), «Xo'ppa semiz, bir tuki yo'q» (tarvuz), «Yer tagida oltin qoziq» (sabzi), «Zar gilam, zar-zar gilam, ko'taray desam-og'ir gilam» (yer), «Boshi tarog', dumi o'roq» (xo'roz), «Qorday oppoq, yungday yumshoq» (paxta), «Bir parcha patir, olamga tatir» (oy) kabi topishmoqlarga javob topa oldilar, xolos. Kuzatishlardan yana shu narsa ayon bo'ldiki, ko'pgina bolalar tabiat va uning muhofazasiga oid zamonaviy xalq topishmoqlarini bilishmaydi.

Osmon jismlari, inson tanasi a'zolari mavzularidagi topishmoqlarni umuman bilishmaydi

- 1) Nur sochadi juda issiq, boqay desang ko'zlarini qisiq (quyosh);
- 2) ko'zga ko'rinmas, qo'lga ilinmas; shusiz hech joyda hayot ham bo'lmas (g'avo);
- 3) katta oppoq dasturxon, hamma yoqni qoplagan (qor);
- 4) qanoti yo'q uchadi, keng olamni quchadi (shamol);
- 5) rak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor (piyoz);
- 6) o'zi qip-qizil asal, to'ni bor-ko'k baxmal (tarvuz) singari yangi topishmoqlardan birortasini tilga olishmadi. Kuzatishlar ko'pgina bolalar topishmoqlarning talabi va ma'nosini

tushunmagan holda ularni qorilarcha yodlaganliklarini ham oydinlashtirdi. Ulardan shu topishmoq nimani talab etayotgani so'ralganda, javob bera olmadilar. Mashg'ulotlarni kuzatish shuni ko'rsatdiki, ko'pgina ta'lim muassasalarida bolalar boshqa mavzularda ham topishmoqlarni kam bilishadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bolalar biladigan topishmoqlarning asosiy qismi yuqorida qayd qilganimizdek, mevalar va sabzavotlar xususidadir. Ular tabiat hodisalari va uning sabablari, bolalarga notanish hayvonlar, hasharotlar, qushlar, o'simliklar, ishmaydi.

Biz o'quvchilarning qancha topishmoq bilishi, uning talabini tushunishi, topishmoqqa tez va to'g'ri javob qaytara olish malakalarini aniqlash maqsadida bolalar bilan yakkama-yakka suhbatlar ham tashkil etdik. Suhbatga jalb etilgan o'quvchilar ekologik mavzuda birorta ham yangi topishmoq aytisha olmadi.

Yakkama-yakka suhbat jarayonida o'zimiz topishmoqlar aytib, ulardan shu topishmoqlarga javob topishni so'radik. Bunda quyidagi topishmoqlar bolalar hukmiga havola etildi:

- 1) yozda kiyinadi, qishda yechinadi (daraxt);
- 2) yozda ham qishda, bir xil kiyimda (archa);
- 3) o'tda yonmaydi, suvga botmaydi (muz);
- 4) o'yib oldim, izi yo'q (suv);
- 5) uyday joyni olar, sichqondan qo'rqar (fil);
- 6) u yoni tog', bu yoni tog', o'rtasi sariyog' (yong'oq);
- 7) o'zi shirin tukligina, mazasi totligina (shaftoli);
- 8) past-past bo'yi bor, malla to'ni bor (beg'i);
- 9) qat-qat to'nli, qarich bo'yli (karam);
- 10) ko'k sandig'im ochildi, ichidan zar sochildi (osmon, quyosh);
- 11) bir parcha patir, olamga tatir (oy);
- 12) Osti tosh, usti tosh, o'rtasida chandir bosh (toshbaqa).

Mavjud holatni aniqlash maqsadida «Topqirlar bellashuvi» musobaqasidan ham foydalanildi. Bunda sinf o'quvchilari ikkita kichik guruhga ajratildi va «Mevalar» mavzusida bellashuv o'tkazildi. Shubhasiz, bellashuv jarayonida shu mavzuga oid xalq topishmoqlaridan foydalanish zarurligi uqtirildi. Har bir guruhdan bittadan bola topishmoq aytish bo'yicha bellashdi. Qaysi taraf bolalari ko'p topishmoq aytib, ularga to'g'ri javob topgan bo'lsa - o'sha taraf g'olib sanaldi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik bolalar 1- 2ta topishmoq aytish bilan chegaralanishdi, xolos. 8-10 tacha topishmoq biladigan bolalar soni har bir tarafdin 1 yoki 2 bolani tashkil etdi. Aksariyat bolalar keng tarqalgan topishmoqlardan boshqa birorta ham yangi topishmoqni aytishmadi. Ma'lumki, topishmoqlarga to'g'ri va aniq javob topish bolalarda mantiqiy tafakkur, xotira, diqqat kabi ruhiy jarayonlar bilan chambarchas bog'langan. O'quvchilarda bu aqliy faoliyat usullarining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida bir tarafga topishmoq aytish va ikkinchi tarafga shu topishmoqqa javob topishni topshirdik. Bu vazifa almashtirilib turildi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, har bir tarafda ko'pi bilan 2 yoki 3 bola bu musobaqaga faol ishtirok etdi. Shubhasiz, ko'p topishmoq bilmaydiganlar va topishmoqqa noto'g'ri javob topadigan bolalar soni o'ar bir tarafda ko'pchilikni tashkil etadi. Mavjud holatning sabablari ko'p, albatta. Bizningcha, bu holning asosiy sabablaridan biri o'qituvchi va ota-onalarimizning xalq topishmoqlaridan unumli foydalanishga beradigan e'tiboriga bog'liq. Ular o'quvchilarga qancha ko'p va rang-barang topishmoq tavsiya etsa, ularda bunga javob topish malakalarini shuncha ko'p singdirib boradi, shubhasiz, bu o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatadi. Qolaversa, oilada xam ota-onalarning o'z bolalari bilan aynan shu sohada ishlashlarida oqsash ko'zga tashlanadi. Holbuki, ota-onalar ham tez-tez farzandlariga topishmoq to'plamlari, rasmi-topishmoqli kitobchalarni sotib olib berishsa va ularni o'qib o'rganishda o'quvchilarga yordamlashishsa, juda yaxshi bo'lardi. Chunki maktab bilan oila hamisha hamkorlikda ish olib bormasa, kutilgan natijaga erishish qiyin kechadi.

Tadqiqotning mavjud holatni aniqlash bosqichida olib borilgan ishlar shunday xulosaga olib keldiki, o'quvchilarning ekologik mavzudagi xalq topishmoqlarini bilishi va ularga javob topa bilish ko'nikmalarini hali talab darajasida shakllangan deb bo'lmaydi.

Topishmoqlardan rejaga ko'ra o'tkazilayotgan tevarak-atrof bilan tanishtirish mavzusidagi maxsus mashg'ulotlarda, sayrlar chog'ida, turli tadbirlar davomida, istirohat va hayvonot bog'iga uyushtirilgan sayohatlar vaqtida o'tkazilgan suhbatlarda foydalanish mumkin. Biroq ekologik yo'nalishdagi xalq topishmoqlardan o'qituvchilarning foydalanishi, o'quvchilarning bilish darajasini ko'ngildagidek deb bo'lmaydi.

Biz boshlang'ich sinflarda o'qituvchilar faoliyatini tahlil etishda ilmiy tadqiqotning kuzatish, qiyoslash, anketa so'rovnomalari bilan foydalanish, yakkama-yakka suhbat singari metodlaridan foydalandik. Ishga solingan bu metodlarning har biri o'qituvchilar faoliyatining u yoki bu qirrasini oydinlashtirishga yordam berdi.

O'qituvchilar faoliyatini kuzatish ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning hozirgi ahvoli xususida boy materiallar to'plash imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, bu jarayonda o'qituvchilar faoliyatida bu yo'nalishda ancha boy tajribalar mavjudligi aniqlandi. Ayrim omilkor o'qituvchilar nafaqat topishmoqni aytish yoki uni yodlatish bilan chegaralanishdi, balki topishmoqning maqsadi, unga qanday qilib tez javob topish yo'llari xususida ham zarur ma'lumotlar berishga harakat qildilar.

O'qituvchilar faoliyatida ko'zga tashlangan yana bir ilg'or tajriba-xalq topishmoqlaridan foydalanishda ularning mavzu jihatidan rang-barang bo'lishiga intilinganidir.

1. Uzun terak, soyasi yo'q (suv);
2. Sutdan tiniq, paxtadan oq (qor);
3. Biri quvlar, biri qochar (quyosh, oy);
4. Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi (quyosh, oy, yulduzlar);
5. Zar gilam, zar-zar gilam,
Ko'taray desam og'ir gilam (yer);
6. Ko'zga ko'rinmas, qo'lga tutilmas (g'avo);
7. To'rt oyoqli, temir tuyoqli (ot);
8. Erta turadi, jar chaqiradi (xg'roz);
9. Yozda ham qishda, bir xil kiyimda (archa);
10. U yoni tog', bu yoni bog', o'rtasida sariyog' (yong'oq);
11. Bir qop un, ichida ustun (jiyda);
12. Qorday oppoq, yungday yumshoq (paxta);
13. Yer tagida oltin qoziq (sabzi);
14. Qishin-yozin yashnaydi, kiyimlarin yechmaydi (archa).

Shubhasiz, bu o'qituvchilarning tinimsiz izlanishi, xalq topishmoqlaridan foydalanishining qulayligini anglashlari mahsulidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xalq topishmoqlaridan foydalanish sohasidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash maqsadida o'qituvchilarga anketa so'rovnomalari tarqatdik. So'rovnomaga «boshlang'ich sinflarda qanday murakkablikdagi topishmoqlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilasiz?» - degan savol kiritildi. Bu savolga ko'pchilik o'qituvchi oddiy topishmoqlardan foydalanishni tavsiya etganlar. Ularning fikricha, oddiy topishmoqlarning mazmunini tushunish, unga javob topish bolalarga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Zero, tez-tez duch kelinadigan va javobini topish uncha murakkab bo'lmagan topishmoqlar oddiy topishmoqlar bo'lib, ular o'quvchilardan kuchaytirilgan faoliyatni talab etmaydi. Chunki bolalar bunday topishmoqlarning javobini ko'z oldilariga keltira oladilar yoki tasavvur eta biladilar. Savolga qaytarilgan javoblar shuni ko'rsatdiki, oson topishmoqlar deyilganda ko'pchilik o'qituvchilar bir yoki ikki predmetni yashirgan topishmoqlarni tushunishadi. Chunonchi, xo'roz haqida o'ndan ortiq topishmoq bo'lib, ulardan:

«Boshi taroq, dumi o'roq», yoki «Erta turadi, jar soladi» singari namunalarnigina oson yechiladigan topishmoqlar sirasiga kiritadi. O'qituvchi xo'roz haqidagi:

Bir qushim bor: avval boshda

Soqoli uning qizil go'shdan,
Sahar turib shovqin solar,
Xabari yo'q hech bir ishdan,-
topishmoqini murakkab topishmoqlar sirasiga kiritishdi.

Bizningcha, topishmoqning murakkablik darajasini uning katta - yo kichik hajmdaligi bilan belgilab bo'lmaydi.

Topishmoqning osonligi yoki murakkabligi unda jumboqlangan narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning bolaga tanish yoki notanishligi bilan belgilamoq lozim. O'qituvchilarning ekologik mavzudagi xalq topishmoqlaridan xabardorlik darajasini aniqlash maqsadida anketaga «Uy hayvonlari, qushlar, mevalar, parrandalar, tabiat hodisalari, yil fasllari, o'simliklar bilan tanishtirishda qaysi xalq topishmoqlaridan foydalanasiz?» - degan savol kiritildi. Ayrim o'qituvchilar tilga olingan har bir mavzu yuzasidan 8-10 ta topishmoqni yozishga erishgan bo'lsalar, ayrimlari 4-5 ta topishmoqni yozganlar, xolos. Ayrim tarbiyachilar esa tilga olingan mavzu doirasida birorta ham topishmoqni bilmaydilar. Anketa so'rovnomasiga «O'quvchilarni tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning qaysi yo'llarini tavsiya etasiz?» - degan savol ham kiritilgan edi. Bu savolga ayrim tarbiyachilar rasmiy test va boshqotirmalardan foydalanishni tavsiya etgan bo'lsalar, ayrimlari topishmoqlarni bilish yuzasidan bellashuvlar tashkil etishni tavsiya etganlar. Javoblardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ko'pchilik o'qituvchilar bolalardagi qiziqish va qobiliyatlarni, iqtidorni hisobga olmaydilar. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, topishmoqni tushunish, unga tez javob topa olish malakasi bolalarning real o'quv imkoniyatlariga ham bog'liq. Shubhasiz, topishmoqlardan muntazam foydalanmasa, bolalarning real o'quv imkoniyati cheklangan holda qolaveradi. Anketa so'rovnomasiga «Siz o'quvchilarga ekologik tarbiya berishda qanday vositalardan foydalanasiz?» - degan savol ham kiritilgan edi. Bu savolga ko'pchilik tarbiyachilar «Har bir mavzuga oid bolalarbop xalq topishmoqlaridan foydalanish orqali», - degan javob qaytarishgan. Bu o'rinda shuni unutmaslik lozimki, xalq topishmoqlari ekologik bilimlar hajmini aniqlashning bitta yo'ligina, xolos. Bolalarning ekologik bilimlar doirasini aniqlashda turli xildagi savol-javoblar, undosh tovushlarni farqlash, so'zlar tuzish, kuzatgan, ko'rgan bilganlari haqida hikoya tuzish, o'z shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon qilish orqali aniqlash mumkinligini unutmaslik lozim. O'qituvchilar bilan o'tkazilgan yakkama-yakka savol-javoblar o'quvchilarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish ular faoliyatida keng o'rin egallamaganligini yaqqol ko'rsatadi.

II-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA XALQ TOPISHMOQLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1.O'quvchilarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning mazmuni

Topishmoq (topmoq so'zidan) – xalq og'zaki ijodining ixcham shaklga ega bo'lgan, qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan hisoblanadi. Topishmoq janriga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar bir-biriga yaqin bo'lgan, o'xshash narsa va hodisalarni ikkinchisiga xos belgilar asosida topishga mo'ljallangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol hamda topshiriqlar. Topishmoq ijrosi uchun kamida ikki kishi yoki guruh, ular topishmoq aytuvchilar va topuvchilardan iborat. Topishmoqlar xalq turmushi bilan bog'liq bo'lib, ularning zamirida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilishga bo'lgan qiziqishlari g'oyaviy-badiiy asosda shakllantirilgan. Shu boisdan ham topishmoqlarda atrofimizni o'rab turgan barcha narsa-hodisalar aks etgan. Turli mavzulardan tashkil topgan topishmoqlarda yashiringan narsalar bosh

obraz hisoblanadi. Shu asosda topishmoqlar ham har xil obrazlilikka ega bo'ladi. Topishmoqlar tarkibida metaforali, savol-topishmoqlar, raqamli topishmoqlar anchagina.

Bir darxtda o'n ikki shoh,

Har shohida o'ttiz yaproq.

Yaprog'ining bir yoni qora, bir yoni oq.

Bu raqamli topishmoq bo'lib, uning javobi bir yil o'n ikki oy va o'ttiz kecha kunduzdir.

O'zbek xalq topishmoqlarining topishmoq-maqol, topishmoq-o'yin, topishmoq-tez aytish, topishmoq-qo'shiq, topishmoq-ertak kabi turlari mavjud.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'rganilayotgan topishmoqning mazmuni ustida ishlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shu orqali bolalar hayotdagi narsa-hodisalarning mohiyatini anglay boshlaydilar, turmushni o'rganadilar, oq-qorani, yaxshi-yomonni taniy boradilar.

O'quvchilarda tabiatga muhabbat uyg'otish, uni avaylab-asrashga o'rgatish ko'p jihatdan o'zbek xalq topishmoqlaridan unumli foydalana bilishga bog'liq. Chunki xalq topishmoqlari orqali bola, bir tomondan, ekologik bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, uni qiziqtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar bolalarning nutqi, tovush madaniyatini tarbiyalashda, ularni so'zlashuvga o'rgatish, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Ularga turmushda ishlatiladigan narsalar va shu narsalar tarkibiy qismlarining nomlari, sifatlari hamda ularga tegishli harakatlarning nomlari bilan tanishtirishda juda qo'l keladi. Eng muhimi, bolalar tabiat va unga xos hodisalarning sodir bo'lish sabablarini topishmoqlar vositasida idrok etar ekanlar, shularga bog'liq holda ularga qadimgi ajdodlarining ilk tasavvur va qarashlari (animizm va totemizm) mohiyatini ham tushuntirish mumkin. Shuningdek, topishmoqlar bolalarda badiiy ijodga rag'bat uyg'otishda ham muhim o'rin egallaydi.

Topishmoqlar orqali bolalar badiiy ijod sirlarini o'zlashtira boradilar. Topishmoqlardan foydalanish, avvalo, bolalarning idroki, kuzatuvchanligi, ziyorligi, topqirligi, chaqqonligi, mustaqilligi bilan bog'liq. Ular jiddiy hamda quvnoq aql o'yini sifatida bolalarning ma'naviy rivojlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, shaklan ixcham, hayotiy mazmuni teran, badiiy barkamol topishmoqlar ko'proq tabiat va uning hodisalari, hayvonlar, o'simliklar mavzusida bo'lib, bolalar diqqatini tezda o'ziga jalb qila oladi ularning murg'akkina xotirasiga tez o'rnatib qoladi. Topishmoqlar orqali bola voqea-hodisalarni kuzatishga, solishtirishga hamda o'zicha xulosalagan xolda asoslashga o'rganadilar. Bu oqibat-natijada bolalar ongini rivojlantirib, mustaqilligini oshira boradi.

Topishmoqlarning yaratilish tarixi qadimgi insonlarning tabiatni va uning hodisalarini stixiyali tushunishlari hamda tushuntirishlari bilan bog'liqdir. Binobarin, qadimda ibtidoiy inson tabiatdagi voqea-hodisalarning sodir bo'lish sabablarini tushunmagani tufayli ularni ilohiylashtirishga uringan. Chunki borliqdagi barcha hodisalar, hatti-harakatlar, g'ayritabiiy kuchlar vositasida yuz beradi deb tushunib, voqea-hodisalar va narsalar nomini iloji boricha ehtiyotkorlik bilan aytishga, hatto sir tutishga, shu orqali yomonlik keltiruvchi g'ayritabiiy kuchlarni chalg'itishga, aldashga, harakat qilganlar. Natijada ayrim narsalarni o'z nomi bilan atamay, ularni o'xshash boshqa biror narsaga qiyoslab gapirish o'yini yuzaga kela boshlagan va bu hol topishmoqlarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Xullas, topishmoq insonning tabiat va jamiyat voqea-hodisalarini, koinot jismlari, insonlar kashf etgan mehnat qurollari, o'simlik va hayvonot dunyosini kuzatish qobiliyati asosida vujudga kelgan xalq og'zaki ijodining maxsus janri bo'lib, undan bolalarni har tomonlama tarbiyalashda muhim didaktik vosita sifatida foydalanish mumkin.

Folklorshunoslarning ta'kidlashicha, qadimda topishmoqlardan ko'proq ijtimoiy maqsadlarda foydalanilgan. Jumladan, u hozirgidek ta'limiy o'yin tarzida emas, balki aqlni sinashning jiddiy vositasi sifatida aytilgan. Binobarin, harbiy sohada xizmatga kirayotgan o'smir yigitlarni sinovdan o'tkazishda, nikoh to'yi marosimlarida kuyov yoki kelin bo'luvchi qiz-yigitlarning aqlini, bilimni, ziyorligini sinashda, shuningdek, qabila yoki yurtga boshliqlar tanlashda ularning aqliy va diplomatik salohiyatlarini tekshirib ko'rishda topishmoqlardan keng

foydalanilgan. Xususan, bolalarni tarbiyalashda topishmoqlar eng muhim tarbiya vositasi hisoblangan. Ular qadimda yoshlarga ko'pni ko'rgan, tajribali, keksa kishilar, qabila oqsoqollari tomonidan nimanidir o'rgatish, tevarak atrofdagi narsa-hodisalar haqida saboq berish maqsadida aytilgan.

Yosh avlod esa topishmoqda yashiringan narsa-hodisani bilib topish orqali dunyoni anglay boshlagan. Bu esa, o'z navbatida, boladan kuzatuvchanlikni, aql-idrokni, fikr mulohaza yuritishni, o'tkir xotirani, boy nutqni, teran bilimni talab qilgan. Har bir topishmoq, albatta, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Masalan, bolalarga «paxta» haqida topishmoq aytilsa, shu orqali ular paxtaning insonga keltiradigan manfaatini ham bilib olganlar.

Topishmoqlar g'oyaviy mazmuniga ko'ra xilma-xildir. Ulardan turli g'oyaviy maqsadlarda keng foydalanish mumkin. Binobarin, hayvonlar haqidagi topishmoqlar orqali ularning foydasi, insonga sadoqati, turmush tarzi va hokazolar haqida bolalarga ma'lumot berish mumkin va bu g'oyat qulaydir.

Topishmoq kompozitsion tarkibiga ko'ra ikki qismdan iborat:

1. Yashirinlayotgan narsa yoki hodisaning asosiy yetakchi belgilari tavsiflangan qismi. Bunda qiyoslashga asos bo'lgan va o'xshatilmish narsa va hodisaning ta'rifi beriladi. Odatda, bu topishmoqning jumboq qismi deb yuritiladi. Jumboqlash o'xshatish va ko'chimning boshqa shakllari zahirida sodir bo'ladi. Eng muhimi, jumboqlanayotgan narsa yoki hodisaning bosh farqli belgilarini ifodalaydi.

2. Jumbog'langan yoki yashiringan narsa va hodisaning o'zi. Bu topishmoqning yechimi bo'lib, javob deb ham yuritiladi.

Topishmoq javobi topilganda qiyos va o'xshatishga olingan narsa shu jumboq uchun dalil, guvoh sifatida ko'zga tashlanadi. U topishmoqda ochiq-oydin nomlanmaydi, balki bir qism orqali anglashilib turadi. Shu anglanganlik topishmoq javobining topilgani demakdir. Anglangan fikrni aytib bermoq esa javobni isbotlamoqdir.

Topishmoqlar borliqning keng sog'alarini qamrab olganligi bois tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari boydir. Shuning uchun bolalarni g'ar tomonlama tarbiyalashda turli mavzudagi topishmoqlardan keng foydalanish mumkin.

Topishmoqlar borliqdagi narsalarning o'zaro o'xshashligi, yaqinligi haqida ma'lumot berib turadi. Shu orqali inson borliqdagi narsa-hodisalarning serqirraligini his qiladi.

Topishmoqlar bolalarga obrazli so'zni tushunishga, badiiy tilni idrok qilishga yaqindan yordam beradi. Shuningdek, ular bolalarda o'z ona tiliga, tug'ilgan yurtiga mug'abbat uyg'otib, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga da'vat etadi. Shu sababli uning tarbiyaviy, ta'limiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalq topishmoqlarining aksariyatida qadimiy va serquyosh O'zbekistonimizning jozibali tabiati, serunum yerlari, boy hayvonot va nabotot olami, o'zbek voqeligi badiiy tasvirlangan bo'lib, ular yosh avlodni bevosita vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Ular qalbida ona yurt go'zalliklaridan faxrlanish va bu go'zalliklarni asrab-avaylash tuyg'usini uyg'otadi.

Shunisi ma'lumki, bitta narsa yoki hodisa haqida bir nechta topishmoq yaratilgan bo'lishi mumkin. Bunday topishmoqlar yaratilishiga, tasviriy vositalari tizimiga, badiiy tiliga qarab, jumboqning berilishiga yoki jumboq yechimining yashirin ifodalanish usuliga ko'ra bir-biridan farqlanib turadi. Bu esa, o'z navbatida, bolalarda ziyraklik tuyg'usini yanada kuchaytiradi. Ularning qiziqishini oshiradi; kuzatuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantiradi; xotiralarini sinaydi toblantiradi va yanada mustahkamlaydi. Topishmoqlar qadimiy qadriyatlarimiz namunalaridir. Ularda qadimiy ajdodlarimizning ijtimoiy hayotdan orttirgan asriy tajribalari, tevarak-atrof haqidagi fikr-mulohazalari, turli xil mushohadalari obrazli va sirli ixcham, badiiy shaklda yashiringan tarzda ifoda etiladi. Qadimdanoq dars sajiyasida aytib kelingan topishmoqlar hanuzgacha bilim berish, nimanidir o'rgatishga mo'ljallanganlik xarakterini yo'qotgan emas.

Topishmoqlar bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va ijtimoiy hayot hodisalariga qiziqtirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Chunki topishmoqlarda, odatda, tabiat hodisalari,

osmon jismlari, narsalar, insonning tana a'zolari, daraxtlar, o'simliklar, sabzavot va mevalar, hayvonlar nomi yashirinsa-da, ularning yetakchi belgi-xususiyatlari ifodalangan bo'ladi. Bolalar shu belgi-xususiyatlarni fahmlaganlaridagina topishmoq jumbog'ini to'g'ri yecha oladilar, aks holda bu vazifani uddalay olmaydilar.

Topishmoqlar bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda alohida qimmatga ega. Chunki ularda milliy, xarakter, tabiiy-geografik muhit belgilari bo'rtib turadi. Bolalarni jonli so'zlashuvga, savollarga aniq, puxta, burro javob berishga o'rgatishda topishmoqlar jiddiy ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar bolalarda she'r aytish ko'nikmasini tarkib toptirishda, ularda chiroyli, to'g'ri gapirish ishtiyoqini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Shuni eslatish o'rinliki, bolalarga har qanday topishmoqlarni berib bo'lmaydi. Ularga ko'proq ta'lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq keladigan topishmoqlarni taklif qilish kerak. Xususan, kichik maktab yoshdagi bolalarga hali turmushdagi ko'p hodisa va narsalar notanish bo'lganligi bois, ularga tushunarli hamda tanish narsalar haqidagi topishmoqlarnigina tanlab berish lozim. Aks holda bolalar qiyin ahvolda qolib, topishmoq o'rganishdan bezib qolishlari hech gap emas. Kichik maktab yoshdagi bolalar uchun, asosan, odam va uning tana a'zolari, ro'zg'or buyumlari, hayvonlar, parrandalar, yomg'ir, qor, o'simliklar, mevalar, sabzavot haqidagi topishmoqlar qiziqarli bg'lib, bular ularning atrof-mug'itga eg'tiborini, kuzatuvchanlik, topqirlik, ziyraklik qobiliyatlarini, hayot haqidagi tushunchalarini kuchaytirishga va kengaytirishga yordam beradi.

Ekologik tarbiya inson hayotida ham ijtimoiy, ham biologik, ham estetik ahamiyat kasb etadi. Ekologik tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati shundan iboratki, inson bevosita tabiat qo'ynida yashaydi, tabiatdagi barcha moddiy resurslar bilan doimiy muloqotda va munosabatda umr kechiradi. Ular orasidagi ana shu murakkab munosabatlar tizimi «hayot» degan nom bilan ataladi. Demak, tabiat inson hayoti mavjudligining, davomiyligining garovidir. Lekin ayni paytda inson ham tabiatning saqlab qolinishida, asrab-avaylanishida eng muhim rol o'ynovchi asosiy kuch sohibidir. U o'zining ongi, aql-idroki bilan tabiatni yanada boyitishi, uning resurslaridan oqilona, tejab-tergab foydalanishi, tabiat predmetlarining buzilib, yo'qolib, ifloslanib ketmasligiga kafolat berishi zarur. Agar inson va tabiat orasidagi ijtimoiy munosabat muvozanati buzilsa, bundan yo tabiat, yo inson, albatta, qattiq zarar topadi.

Ekologik tarbiyaning biologik ahamiyati shundaki, inson tabiatning bir bo'lagi bo'lganligi bois, uning tabiiy-biologik ehtiyojlari ham to'ppadan-to'g'ri ona tabiatning moddiy boyliklari va go'zalliklari orqali qoniqish topadi. Insonning yashashi uchun muhim bo'lgan asosiy vositalar-yer, havo, suv, o'simliklar va hayvonot dunyosidan olinadigan oziq-ovqat hamda kiyim-kechak mahsulotlari; yorug'lik va issiqlik manbalari-barchasi tabiatning odamzotga ko'rsatgan bebaho sag'ovatidir. Ularsiz inson yashay o'lmaydi. Shunday ekan, bu birlamchi zaruriyatlarning har qancha tozaligi, ifloslanmasligi, yo'qolib, nest-nobud bo'lib ketmasligi inson umrining ham uzayishiga kafolatdir. Qolaversa, inson ulardan ma'naviy zavq va bahra olib yashaydi. Go'zal tabiat manzaralari inson his-tuyg'ulariga shu qadar ta'sir ko'rsatishga qodirki, buning natijasida inson qalbida yo shoirlilik hissi jo'sh uradi, yo u qo'lga muyqalam olib, shu go'zallikni qog'ozda abadiy muhrlab qolishga jazm etadi.

Inson o'zining tabiat bilan yaqinligini azaldan his etib keladi. Shuning uchun imkon qadar unga yaqinlashishga, u bilan til topishga harakat kiladi. Har bir inson chuqur qayg'uga botganida ham, aksincha juda quvongan kezlarida ham o'zini faqat tabiat og'ushiga otgisi keladi. Tabiat qo'ynida: suvliklar bo'yidami, qir-adirga chiqibmi, toshloqlarni kezibmi-dilidagi orzu-quvonchiga yoki dardu g'amiga tabiatni o'ziga oshno tutib sirlashadi.

Birorta xonadon yo'qki, uyida yo biror jonivor boqmasa, yo biror o'simlik ekib undirma. Bundan insoniyat nafaqat iqtisodiy manfaat ko'zlaydi, balki o'z tabiiy ma'naviy ehtiyojlarini ham qondiradi.

Tabiat bag'ridagi so'lim go'shalarda dam olib, hordiq chiqarish yohud shunday joylarda umrguzaronlik qilish insoniyatning doimiy va azaliy niyatlaridan biri hisoblanadi.

Odamlar foydali va chiroyli o'simliklarni, hayvonlarni, qushlarni uy sharoitida parvarish qilib, bundan har tomonlama bao'ra oladilar va o'z estetik didlarini tarbiyalab boradilar.

Odamzod hatto yovvoyi hayvonlarni ham qo'lga o'rgata oladi. o'z aql-zakovati bilan tabiatning bir buyumidan ikkinchi narsani bunyodga keltiradi. Insonning ta'sirida qush so'zlashni, hayvon insonlardek harakat bajarishni o'rganib oladi. Xullas, hayotda kuzatilgan bu holatlarning barchasi inson bilan tabiatning ijtimoiy-biologik jihatdan nihoyatda bog'langanligini ko'rsatib turadi.

Insonning tabiat saxovatini his etishi, uning saxovatidan ta'sirlanishi ekologik tarbiyani nafaqat ijtimoiy-biologik, balki estetik zaruriyatga ham aylantirib qo'yadi. Chunki tabiat insonning his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi asosiy manbadir. Inson tabiat go'zalliklaridan zavqlansa, bahri dili ochiladi, ijodkorlik qobiliyati rivoj topadi. Aksincha, inson tabiatdagi ko'rimsiz, xunuk narsalarga duch kelsa yoki uning go'zal manzarasi toptalganining guvohi bo'lsa, dili xufton bo'ladi, g'azabi jo'sh uradi. Shuning uchun tabiat go'zalliklarini asrab-avaylash inson hayoti uchun muhimdir. Ayniqsa, tabiatga azaliy xalqona an'analar asosida munosabatda bo'lish uning estetik qimmatini oshiradi. Xullas, tabiat insonning sog'lom, go'zallikka oshno bo'lib yashashida muhim o'rin tutadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya umuman ta'lim-tarbiyaning boshqa ko'rinishlari singari turli vositalar orqali amalga oshiriladi. Ana shu muhim vositalardan biri xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan turi - topishmoqlardir. Ekologik tarbiya vositasi sifatida xalq topishmoqlaridan ko'zlanadigan asosiy maqsad-ekologik tarbiya maqsadlari bilan uyg'unidir. Xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiya berish kichik maktab yoshdagi bolalarda tabiat, moddiy borliq haqidagi dastlabki tasavvurlarni singdirishda xizmat qiladi. Topishmoqlar orqali bolalar nimanidir o'rganishga muvaffaq bo'ladilar. Chunki topishmoqlar u yoki bu narsa haqida ma'lumot beradi. Topishmoqlar nafaqat bolalarning badiiy fikrlash tafakkurini o'stiradi, balki ularning hisob (matematika), hajv-o'lchov shakllari (geometriya), tarix, botanika (o'simliklar olami), zoologiya (hayvonlar olami) va h.k. fanlariga oid dastlabki bilimlarini shakllantirishda ham yordam beradi. Demak, birgina topishmoqda bir necha fanga oid ma'lumot uyg'unlashib keladi. Shu jihatdan qaraganda, topishmoq - olamdagi narsa-hodisalarning ixcham ensiklopedik bayonidir.

Masalan, «Past bo'yli, malla to'nli» topishmog'i, birinchidan, bolaga behi mevasi, uning tuzilishi, ko'rinishi haqida ma'lumot bersa, ikkinchidan, bolaga behining metaforik badiiy tasviri haqida estetik tushuncha beradi. Natijada topishmoq zaminida botanik bilim bilan adabiy bilim o'zaro uyg'unlashadi. Ma'lumki, topishmoqda behi dumaloq bo'lgani uchun «past bo'yli» deb, ustidagi mayin tuklar malla rangda bo'lgani uchun esa «malla to'nli» deb tasvirlangan. Bu bilan bolalarga mavjud barcha narsalar o'ziga xos shakl-ko'rinishida, ma'lum rangda bo'lishi uqtiriladi. Bolalarning e'tibori tevarak-atrofdagi narsa-hodisalarning tuzilishiga, rang-ro'yiga jalb qilinadi. Natijada, bolalar olamning serqirraligi, bepoyonligi haqidagi tasavvurga kela boshlaydilar.

Topishmoqlarning eng muhim fazilati, ularning bolalarni bevosita kuzatuvchanlikka va topqirlikka jalb etishidir. Bola tabiatni kuzatsagina uni tushuna boshlaydi. Masalan, bola suvni kuzatsa, uning oqishi, issiq yoki sovuq bo'lishi, jonzoatlarning eng muhim iste'mol qiluvchi narsasi ekanligi haqidagi bilimlarga ega bo'ladi. Yoki bola qorni kuzatsa, uning osmondan yog'ishi, oppoq va sovuq bo'lishi, juda ko'p va rang-barang uchqunlardan iborat ekanligi haqida bilib oladi. Shu orqali bolada tabiatning alohida hodisalari haqidagi bilimi shakllana boshlaydi.

Bola hayvonlar bilan muomala-munosabat qilganda ko'pincha ularni o'zi yoshligida o'ynagan hayvon nusxasidagi o'yinchoqlariga qilgan muomalasi asosida murojaat qilmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ularda dastlabki yillarda hayvonlardan qo'rquv hissi kamroq bo'ladi.

Bola uchun dastlabki yosh davrida osmonda erkin uchib yurgan qush ham, katakda sayrab turgan qush g'am, qush nusxasida yasalgan ovoqli qush ham, rasmda aks ettirilgan jonsiz qush tasviri ham bir xil tuyuladi. Bola ularni faqat «qush» sifatida qabul qiladi. Bunda hali bola «jonli», «jonsiz», «erkin ozod» yoki «tutqun» degan tushunchalarni anglamaydi. Lekin jonsiz qushga nisbatan jonli qushga boshqacha qiziqish bilan qaraydi. Biroq buning sirini g'ali anglab yetmaydi. Shunda kattalar bolaga mana shu farqni, sirni tushuntirib berishlari juda mug'im. Shu orqali bola tirik tabiatga boshqacha qiziqish bilan qaraydi. Uning e'tibor va mehrga muhtojligini his qiladi.

Topishmoqlar bolalardan tabiatga nisbatan mana shunday e'tiborli va sahovatli bo'lishni talab etadi. Chunki topishmoqlar bolalarga u yoki bu narsa, hodisaning, jonivorning yoki kishi a'zolarining xususiyatlari, eng muhim belgilari haqida, ularning tabiiy-ijtimoiy vazifalari to'g'risida bilim berish imkoniga ega bo'lgani uchun yuksak tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Qavat-qavat to'ni bor,

Tugmasi yo'q.

«Karam» haqida aytilayotgan topishmoq bolalarga uning tuzilishi (qavat-qavat yaproqlardan tashkil topganligi) haqida bilim beradi va asta-sekin ko'nikmaga aylanib, bola karamni adashmay taniydigan bo'ladi. Shundan so'ng bola «karam» haqidagi tushuncha va malakalarini o'z hayotiy tajribasi davomida yanada boyitib boradi. Bola endi karamning iste'mol mahsuloti sifatidagi xususiyatlari, undan qanday taomlar tayyorlanishi, uni ekib o'stirish bilan bog'liq mehnat jarayoni qiyinchiliklari bilan tanisha boradi. Natijada bola karamga iste'mol mahsuloti sifatida baho berishni, shu jihatdan uni ardoqlashni, asrab-avaylashni o'rgana boshlaydi. Bundan ko'rinayaptiki, topishmoqlar bolalarning tabiat narsa-o'odisalari haqidagi elementar bilimlarini shakllantirishda va ularning bilimdan ko'nikmaga, ko'nikmadan malakaga aylanishida asos bo'ladi.

Inson o'z qalbiga, hayotiga yaqin juda ko'p narsa-hodisalar haqida topishmoqlar yaratgan. Bitta narsa haqida bir necha topishmoq yaratilgan bo'lishi mumkin. Lekin ular shaklan biri ikkinchisini takrorlamaydi. Balki ularning har biri bir mustaqil asar sifatida yashaydi. Masalan, xo'roz haqida yaratilgan quyidagi ikkita topishmoqning har biri o'zicha mustaqil asardir.

1) Boshi taroq, dumi g'roq.

2) Erta turadi, jar chaqiradi

Birinchi topishmoqda xg'rozning asosan, shakl-kg'rinishi eg'tiborga olinayotgan bg'lsa, ikkinchi topishmoqda uning feg'l-atvori inobatga olingan. Har ikkala topishmoq bolaning xo'roz haqidagi tasavvur tushunchalarini kengaytiradi va mustahkamlaydi.

Topishmoqlarning ekologik bilim va tarbiya berishdagi o'rni va roli quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Topishmoqlar bolalarga ikki xil tabiat dunyosi mavjudligi haqida saboq berishda qo'l keladi:
 - a) o'z holicha, insonning xohish irodasiga bog'liq bo'lmagan holda o'sib-rivojlanib boruvchi yovvoyi tabiat dunyosi haqida. Bunga tog'-adirlar, daryo-ko'llar, o'rmonlar va h.k. misol bo'ladi.
 - b) Insonning aql-zakovati, qo'l mehnati yordamida hosil qilingan madaniy tabiat dunyosi haqida. Bunga bog'lar, parklar, ekin maydonlari va h.k. misol bo'ladi.
2. Har bir tirik jismning yashashi, ko'payishi va o'z hayotini davom ettirish uchun zarur resurslar haqida ma'lumot berishga ko'maklashadi. Bular: suv, havo, tuproq, yorug'lik, oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari bo'lib, ularning mavjudligi va asrab-avaylanishi tirik organizmlar yashovchanligining muhim garovi ekanligi ochib beriladi. Aks holda tirik jism halokatga mahkum bo'ladi.
3. Madaniy tabiat-predmetlarini yetishtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar xususida ma'lumot berib o'tiladi. Masalan: poliz ekinlari, don mahsulotlari, meva va sabzavotlar yetishtirish, uy hayvonlarini boqish va ko'paytirish haqida va h.k.
4. Yovvoyi tabiat saxovati haqida bilim beriladi. Bunda insonlarning qo'ziqorin, turli o'rmon mevalari, pista, do'lona kabi tayyor mahsulot sifatida uchraydigan tabiat in'omlarini terish, shuningdek, ov qilib, sayohatbop go'shalarda dam olib, hordiq chiqarish kabilar haqida ma'lumot beriladi.
5. Insonning yovvoyi tabiatga nisbatan g'amxo'rliqi haqida tushuncha berishga yordam beradi: ya'ni, insonning o'rmonlarni ko'paytirishi, uni yong'inlardan ehtiyot qilishi, baliqlarni urchitishi, qo'riqxonalaridagi noyob hayvon va o'simlik turlarini asrab-avaylashi haqida ma'lumot berishga yo'l ochadi.
6. Tabiatdagi barcha jonli va jonsiz narsalar o'zaro bog'liqligi, ularning birinchisini ikkinchisiz tasavvur qilib bo'lmasligi haqida tushuncha berishga imkon beradi. Natijada bu hol tabiatdagi

eng kichik bir yo‘qotish ham kattadan-katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkinligi haqidagi haqiqatni namoyon etadi.

Shundan kelib chiqqan holda xalq topishmoqlari vositasida ekologik tarbiya berishda quyidagi vazifalar ko‘zda tutiladi:

- xalq topishmoqlari orqali bolalar o‘zini o‘rab turgan narsalar xususida ilk tasavvurlar hosil qilish;

- mevali va mevasiz daraxtlar, gullar, sabzavot va poliz ekinlari, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, qushlar, tog‘, daryo, ko‘l, bog‘, gulzor, paxtazor, ekin maydonlari, yaylov, havo, suv, quyosh, shamol, bulut, yomg‘ir, qor xususidagi topishmoqlar orqali shu narsalar haqida ilk tasavvurlarni paydo qildirish;

- kichik maktab yoshdagi bolalarning kuzatish qobiliyatini o‘stirish, tanish narsalardan notanish narsalar sari borish talabiga qat‘iy amal qilgan holda bolalarda turli xil hodisa va narsalarni kuzatirish malakasini hosil qilish;

- bolalarni hodisa va narsalarning xususiyatlarini bir-biriga taqqoslash asosida ularning o‘zaro farqini ajrata bilishga o‘rgatish;

- hodisa va narsalarni har taraflama tekshirib ko‘rib, tegishli xulosa va hukm chiqarishga o‘rgatish;

- xalq topishmoqlaridan foydalanish orqali bolalarda topqirlik, tez fikrlash, esda saqlab qolish, ziyraklik, donolik singari xususiyatlarni rivojlantirishga keng yo‘l ochish;

- tabiatni kuzatish mashg‘ulotlarining qiziqarli va zavqli o‘tishini ta‘minlash, shu asosda bolalarda estetik didni tarbiyalash.

Xullas, topishmoqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni, ekologik bilim va malakalarni shakllantirishning eng qulay usuli bo‘lib, ular orqali bolalar o‘zlarining tevarak-atrof bilan muomala-munosabatlarini to‘g‘ri tashkil qilib oladilar. Eng muhimi, bolalarda tabiatga nisbatan insoniy tuyg‘u shakllanadi.

2.2. O‘quvchilarga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berishning shakl va usullari

Insonni o‘rab olgan olamning murakkabligini, ajoyibotlarini, sirililigini anglatish, tabiatni muhofaza qilishni idrok qilishga yordamlashish ta‘lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. Shuni unutmazlik lozimki, tabiatdagi hamma narsa, voqea-hodisalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli va sirli topishmoqday tuyuladi. Ular bu jumboqlar sirini bilishga, sabablarini anglashga harakat qiladilar.

Shuni hisobga olgan holda, ayni paytda, butun insoniyatni tashvishga solib qo‘ygan dunyoviy muammo-tabiatni asrab-avaylash ishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bolalarning kichik yoshidan boshlash va buni ularga juda tushunarli va qulay bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan ommaviy janri topishmoqlar vositasida amalga oshirishning o‘ziga xos usullarini ishlab chiqish, topishmoqlarning bu boradagi pedagogik imkoniyatlarini ochish, didaktik ustivorligini ko‘rsatish va uni ta‘lim-tarbiya tizimiga joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, o‘simliklar, hayvonlar, tabiat hodisalari, osmon yoritgichlari haqidagi topishmoqlar tarbiyalanuvchilar uchun juda qiziqarli bo‘lib, ular bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirishga va mustahkamlashga yordam beradi. Biz tajriba sinov ishlari jarayonida o‘yin shaklidagi topishmoqlarga katta e‘tibor qaratdik. Bu mashg‘ulot turi, odatda, o‘yin shaklida tashkil etiladi. O‘yin musobaqa tarzida o‘tadi. Bolalar 2-3 guruhga ajratilgan holda o‘zaro bellashadilar. Birinchi guruh topishmoq aytsa, ikkinchi guruh unga javob topadi. O‘yin shu tariqa davom etadi.

O‘quvchi topishmoqda yashiringan narsalarni topish jarayonida turli qiyoslashlarga, o‘xshatishlarga duch keladi. Bu hol uning badiiy mushohada yuritishiga imkon beradi. Masalan «Zil gilam, zil-zil gilam, ko‘taray desam og‘ir gilam» topishmog‘ini tahlil qilib ko‘raylik Bu topishmoqni eshitgan bola fikran naqshinkor, rangdor gilamni ko‘z oldiga keltiradi. So‘ngra gilamga o‘xshaydigan narsalarni izlay boshlaydi. Shu haqda mushohada yuritadi. Nihoyat,

gilamdek og'ir, ko'tarib bo'lmaydigan, doim oyog'i ostida bo'lgan yer ko'z oldiga keladi. Qiyoslaganda bajaradigan vazifasiga ko'ra gilam ham, yer ham xalqning beminnat xizmatida bo'lishi bolaning topishmoq javobini topishiga turtki bo'ladi.

Jamiyat rivojlangan sari topishmoqlarning mavzu doirasi va mazmuni o'zgarib boradi. Ayrimlari eskiradi, ayrimlari yangidan paydo bo'ladi. Eskirgan topishmoqlarda ko'pincha eski turmushga xos asbob-uskunalarining nomi uchraydi yoki topishmoq butunlay eski predmetlar haqida bo'ladi. Bunda bola o'sha predmetning tarixiylashgan yoki arxaiklashgan nomini ham bilishi lozim. Chunonchi, «Yer tagida oy borar, oyni ko'rib boy yurar» topishmog'iga e'tibor beraylik. Bu topishmoq qadimgi qishloq xo'jalik ishlarining asosiy quroli-omoch va unga kiygizilgan so'ka haqidadir. Ammo hozir qishloq xo'jalik ishlarida bu predmetlar deyarli qo'llanilmaydi. Shuning uchun bola bu topishmoqning javobini topolmasligi mumkin. O'qituvchi bunday topishmoqlarga duch kelganda shu predmetlarning barcha xususiyatlarini tushuntirishi va topishmoq yaratilishi uchun shu predmet qaysi predmetga qay jihatdan qiyoslanayotganligini sharhlashi mumkin.

Uzoq davrlardan beri avloddan-avlodga o'tib kelgan topishmoqlarni an'anaviy topishmoqlar deb atashadi. Bular asrlar davomida yaratilgan, avloddan-avlodga o'tib, sayqal topib kelayotgan topishmoqlardir. Ularda jumboqlangan, yashiringan narsaning o'xshatmasi ancha qadimdan hozirgi kunga qadar saqlangan, shu sababli yangi topishmoqlar an'anaviy topishmoqlardan farq qiladi. Ularda yangi turmush predmetlari, asbob-uskunolari o'z aksini topadi. Masalan; «Uyga oldik bitta nok, yop-yorug' bo'ldi har yog'» topishmog'i lampochka xususidadir. Hozirgi kunda lampochkani ko'rmagan, uni yoqmagan bola bo'lmasa kerak. Shunday ekan, bola tuzilishi va osilib turishi nokka o'xshagan, hamma yoqni o'zining yog'dusi bilan yoritib, uyning o'rtasida osilib turadigan lampochka ekanligini tez tushunadi.

Ayrim predmetlar haqida o'tmishda boshqacha, hozir boshqacha topishmoq yaratilganligi ham ma'lum. Masalan, osmon haqida o'tmishda «Ko'k ko'ylakka qo'l yetmas», «Ko'k kosani to'ntardim» topishmoqlari to'qilgan bo'lsa, keyinchalik «Kattakon zontik, ranglari ko'm-ko'k, ostiga sig'ar ko'p odam, ular yurar tip-tik» topishmog'i paydo bo'lgan. Osmonning rang belgisi bir xilda saqlangan va shu birlamchi xususiyati topishmoq javobini topishga yordam beradi.

Ma'lumki, birgina narsaga oid topishmoqning o'nlab variantlari mavjud. Masalan, baliq haqidagi topishmoqning «Suvda tug'di, yerda o'ldi», «Qanoti bor uchmaydi, quruqlikda yurmaydi», «Joni bor jondan, suv ichar ko'ldan», «Ko'zlari nurdan, terisi puldan» singari variantlari bor.

Yuqoridagi misollardan shu narsa ravshan ko'rinayaptiki, topishmoqlarning ayrimlari o'tmishdan hozirgi kunga qadar tildan-tilga o'tib kelayotgan bo'lsa, ayrimlari keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida paydo bo'ldi. Topishmoq janri xalq ijodining doston, ertak, qo'shiq, maqol kabi janrlari bilan aloqada bo'lib, yo ularning tarkibiga, syujetiga singgan bo'ladi, yo bevosita shu janrlarga xos xususiyatlarni o'z xarakteriga moslashtiradi. Ikkinchi holatda oraliq janrlar namunalari yuzaga kelganki, ular topishmoq-qo'shiq, topishmoq-maqol, topishmoq-ertak va h.k. nomlar bilan yuritiladi. Chunonchi, «Bir daraxt bor, bargi kumushdan, mevasi oltindan. Bu nima (jiyda)» topishmog'ini olib ko'raylik. Ushbu topishmoq jumboq xarakteriga ega. Unda jumboqli fikr, so'roq orqali berilgan.

Katta va ilk yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda topishmoqlarning turli ko'rinishlaridan foydalanish mumkin. Masalan, kichik yoshli guruhlarda ovozga taqlid qilish orqali yaratilgan "Fa-g'a-g'aq nimag'" (g'oz), «Mu-mu nima» (sigir), «Chiy-chiy nima» (sichqon) kabi topishmoqlardan foydalanilsa, katta yoshdagi bolalarda ko'proq tevarak-atrofdagi narsalarni mushohada qilishga qaratilgan topishmoqlardan foydalaniladi. Kichik yoshdagi bolalar ovozga taqlid orqali ayrim hayvonlar, qushlar, jonivorlar nomini, harakat-belgisini aniqlashsa, katta yoshdagi bolalar mushohada orqali unga javob topadi.

Topishmoqlarda falsafiy, tarixiy, etnografik belgilar, tushunchalar, hodisalarning mohiyati go'zal obrazli ifodalarda aks etganligi bois, ular vositasida bolalarga juda ko'p narsalarni uqtirish, tushuntirish mumkin. Masalan, «o'zi farz, bebismillo» topishmog'ida "Salom berish" insoniy burch ekanligi uqtiriladi. Xalq topishmoqlari rang-barang mazmun va shaklda bo'ladi.

Ayrim topishmoqlar faqat bitta predmet haqida aytilsa, ba'zilar ikkita, uchta yoki undan ortiq predmetni jumboqlaydi.

Masalan, «Uzoq tog'da o't yonar» (quyosh) topishmog'iga e'tibor qarataylik. Bu topishmoq orqali quyosh haqida tasavvur uyg'onadi. Chunki quyosh chiqayotganda yoki botayotganda alangaga o'xshaydi. Bu paytda u kuzatilsa, xuddi uzoqda olov yonayotgandek tuyuladi. Xususan, tog'li joyda bu manzara juda go'zal ko'rinadi va bolani maftun etuvchi mohiyat kasb etadi. Hamma gap bola tuygan ana shu go'zallikni e'zozlay bilish tuyg'usini uyg'ota bilishda. Buning uchun topishmoqni qaysi paytda aytish ham muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu topishmoq quyosh chiqishi yo botishi lahzalarini kuzatish asnosida aytib yechilsa, bolaning murg'ak qalbi va shuurida ekologik tuyg'uning kurtak yozishiga ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi. «Oltin kelganda kumush ketar, kumush kelganda oltin ketar» topishmog'ida oy va quyosh nazarda tutilgan. Chunki bu topishmoqda kunduzi sariq rangda oltindek tovlanadigan quyosh, tunni o'zining kumushdek yog'dusi bilan yoritib turuvchi oy o'z ifodasini topgan. Qolaversa, inson uchun quyosh va oy oltin va kumushdek qimmatlidir. Ular bu mavjudotning bitmas-tuganmas boyligi sanaladi. «Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi» topishmog'ida quyosh, oy, yulduzlar obrazi birgalikda keltirilib jumboqlangan. Ko'p predmetli topishmoq javobini topish bolalardan ma'lum darajada bilim va tajriba talab qiladi.

Shunday topishmoqlar ham borki, ular bolalarni bevosita chuqur o'ylashga, mushohada yuritishga majbur qiladi. Bular masala-topishmoq deb yuritiladi. Bu topishmoqlar o'z xususiyatiga ko'ra, bolalarda matematik tushunchalarni idrok etishga, arifmetik hisob-kitob jarayonida mavhum (abstrakt) tafakkurning kurtak ochishiga yo'l ochadi. Masalan, «Kunlardan bir kun chol o'g'liga o'ttiz tiyin berib shunday debdi: o'g'lim, shu pulga narsa olib kelginki, biz ham, tovug'imiz ham, qo'zimiz ham tuyadigan bo'lsin. Aytinglarchi, bola nima olib kelishi kerak» (qovun), «Ang'or bo'yida uch tup qarag'ay o'sadi. Ularning har birida uchtdan yo'g'on shoxi bor, har bir yo'g'on shoxida beshtadan novda bor. Har bir novdada yetti donadan olma bo'lsa, hammasi bo'lib nechta dona olma bor» (bitta ham olma yo'q, qarag'ayda olma bo'lmaydi).

Bunday topishmoq bolalarda mantiqiy fikrlash malakasini shakllantiradi. U qarag'ay daraxti olma solmasligidan iborat haqiqatni idrok etadi. Eng muhimi, bola o'zi anglab yetgan haqiqatdan chalg'imaslik sabog'ini olarkan, bunda qarag'ay va olma o'rtasidagi farqni tushunib yetadi. Qarag'ay-mevasiz daraxt ekanligi, olma esa - yegulik meva soladigan daraxtligini fahmlaydi, shu tariqa tabiatda mavjud ekinlar farqlari tufayli rang-barangligini, betakrorligini va go'zalligini tuya boradi. Bu esa, o'z navbatida, unda ekologik dunyoqarashning kurtak yozishiga yo'l ochadi.

Biz tajriba-sinov ishlari jarayonida hazil topishmoqlardan ham foydalanishga harakat qildik. Bu topishmoqlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, hazil savollar bolalarni o'ylashga, fikrlashga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ularda ziyraklik, topqirlikni oshirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, «Nima soqoli bilan tug'iladig'» (echki), «Jonsiz tirik nima» (daraxt), «Tipratikon qishda nima qiladi» (uxlaydi), «Qaysi hayvon qish bo'yi boshini pastga qilib uxlaydig'» (ko'rshapalak), «Qaysi joyda osmon pastda bo'ladi» (suvda), «Hayvonlar orasida eng sezgiri qaysi» (it).

O'quvchilarning aytilayotgan topishmoqning mazmunini puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

a) topishmoqning matnini aniq, ravon qilib yoddan aytish. So'ngra yana bir bor takrorlash;

b) topishmoqni aytayotganda jumboqlangan qiyoslab ko'chirilgan bo'lsa, qiyosdagi narsani qiyoslanuvchi narsaga nisbatan mimikalar va xatti-harakatlar yordamida tasvirlab ko'rsatish;

v) topishmoqda yashiringan narsaning ta'kidlanayotgan eng muhim belgilarini alohida ohang bilan takrorlab aytish;

g) topishmoqda yashiringan narsani topishga yordam beruvchi qo'shimcha savollar tuzish va bolalarga berish hamda ulardan javob olish

Masalan: Uzun terak,

Soyasi yo‘q, –

topishmog‘ini yechish uchun «Terak qanaqa daraxt», «U qanday o‘sadi», «Uzunligi jihatidan yana nimani terakka o‘xshatish mumkin» kabi savollardan foydalanish mumkin.

Ba‘zi topishmoqlar esa juda aniq va tushunarli bo‘ladi. Ularning javobida garchi bitta jumboq bo‘lsa-da, oson anglashilib turadi. Bunday topishmoqlarning dalilini xulosadan emas, balki tajriba va kuzatuvlar asosida isbotlashdan boshlagan mag‘qul.

Masalan:

Kechalikka g‘ov-g‘ov etar,

Kunduziga vov-vov etar, - topishmog‘ini eshitgan bolalar «vov-vov» etadigan «it» ekanligini darhol ilg‘aydilar. Chunki buni ular hayotda ko‘p eshitganlar, ko‘rib bilganlar. Yashiringan narsaning bir necha belgisi keltirilayotgan topishmoqlarning javobini dalillashda bolaga o‘z fikrini topishmoq xulosasidan boshlashga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Binobarin, «Yer tagida qizil bo‘g‘cha» topishmog‘ini eshitgan bolalar darhol «bu sholg‘om» deb javob beradilar va shundan so‘ng o‘z fikrlarini asoslashga kirishadilar. Chunki sholg‘omning rangi qizil, yerning tagida, barglari esa yer ustida o‘sadi; ko‘rinishi dumaloq bo‘ladi. Yer tagidagi sholg‘om bilan yer ustidagi bargi bir-biriga tutashib turadi. Bu ko‘rinish esa, tugib qo‘yilgan bo‘g‘chani eslatadi va topishmoq javobini topishga xuddi shu belgi yordam beradi. Ko‘rinib turibdiki, bu usul bolalarni ravon o‘ylashga va so‘zlashga undaydi.

Topishmoqning javobini topishning muhim shartlaridan biri uni diqqat bilan tinglay bilishdir. Chunki u diqqat bilan tinglansagina, unda jumboqlangan narsa yo hodisa mohiyatini ilg‘ab olish osonlashadi.

Javobini topish qiyinroq topishmoqlarni esa, iloji boricha, bolalarga tavsiya etmaslik kerak. Mabodo shunday topishmoqlarga duch kelib qolinsa, uning javobi topilguncha, tarbiyachi turli qo‘shimcha savollar bilan ularni o‘ylashga undashi zarur. Toki bolalar o‘xshatilgan yoki taqqoslangan narsaning o‘xshatmasi yoki taqqoslanmasini topish uchun o‘ylasinlar, fikr yuritsinlar va muayyan belgilarini aniqlab, shu asosda «javob»ni topa bilsinlar.

Topishmoqning javobini topish uchun uning mazmunini o‘ylab ko‘rish, ta’lil qilish lozim. Unda nimaga ishora etilayotganligini fahmlash topishmoqqa javob topishni osonlashtiradi. Ba‘zi topishmoqlarda yashiringan narsa boshqa narsalarga o‘xshatilmaydi, taqqoslanmaydi va belgilari ham aytilmaydi. Ularda faqat qancha narsa nazarda tutilayotgan bo‘lsa, o‘shancha miqdordagi son jumboqlanadi. YA’ni, savol qismi ma’lum sanoq soni bilan aytiladi. Bunday topishmoqlar bolalarning arifmetik bilimlarini shakllantiradi, hisoblashga qiziqishlarini oshiradi, shu bilan birga ularda mavhum (abstrakt) tafakkurning kurtak yozishiga yo‘l ochadi.

Topishmoqlarni ma’lum mavzu asosida tanlash va berish uning javobini topishni ancha osonlashtiradi.

Topishmoqda biror narsa yoki hodisaning nomi aniq aytilmay, uning eng muhim belgi xususiyati ifodalanib, o‘zi sir tutiladi yoki jumboqlanadi. Bola shu ishora asosida jumboqlantirilgan narsa-hodisani aniqlaydi va nomini aytadi.

Topishmoqlarning javobini topishda tasavvur katta ahamiyatga ega. Chunki tasavvur fikrlashga, fikrlash xulosaga yetaklaydi. Ammo buloq, tog‘ yoki ba‘zi hayvon turlari-yu o‘simliklarni ko‘rmoqning imkoni hamma bolalarga ham nasib etavermaydi. Aytaylik, Buxoro hududida yashovchi bolalarning ko‘pisi buloqni yoki tog‘ni ko‘rmagani aniq. Shaharlik bolalar qaysi hayvon nima yeydi, qanday xususiyatlarga ega ekanligi haqida u qadar ma’lumotga ega emaslar. Shuning uchun topishmoq tanlashda bolalarning nafaqat yosh xususiyati, balki yashash joyi va tilini ham inobatga olishga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek xalq topishmoqlarida qadimiy va serquyosh O‘zbekistonimizning jozibali tabiati, serunum yerlari, boy hayvonot va nabotot olami, badiiy tasvirlab beriladi. Ularda shu boylik va go‘zalliklarni maromiga yetkazib ta’riflash va tavsiflash uchun rang-barang sifatlashlardan keng foydalaniladi. Topishmoqlardagi sifatlashlar, avvalo, ular yashiringan narsani tez va oson topishga yordam bersa, ikkinchidan, narsaga xos go‘zalliklarni, alohidaliklarni his qilishga hamda ulardan bahramand bo‘lishga undaydi.

Topishmoqda ko'rsatilgan sifatlar va sifatlashlar topishmoq zamirida yashiringan narsaning xususiyatlariga qarab turli xilda bo'ladi. Bunda sifatlashlar yashiringan narsaning yo rangini, yo tuzilishini, yo harakat-holatini, yo belgisini, yo xarakter-xususiyatini bildirishi mumkin. Jumladan, «Bo'yi bir qarich, soqoli ikki qarich» topishmog'ini olib ko'raylik. Topishmoqda garchi insonga xos «soqol» so'zi tilga olinsa-da, undagi «bo'yi bir qarich» aniqlovchisi, fikr inson haqida emas, boshqa bir narsa haqida ekanligini ifodalab turadi. Chunki insonlar orasida bo'yi bir qarich o'lchamliklari yo'q. Shunday ekan, bolalar ko'z oldiga makkajo'xori keladi. Chunki uning pastakkina bo'yi va soqoldek paxmoq popugi bor. Demak, topishmoqning javobi «makkajo'xori»dir. Uning tabiiy tuzilishi topishmoq matnida keltirilgan sifatlar bilan muvofiq keladi. Ko'rinyaptiki, topishmoqlar bolalarga obrazli so'zni tushunishga, badiiy tilni idrok qilib borishga yordam beruvchi eng qulay janrdir. Qolaversa, ular bolalarning so'z boyligini oshirib, badiiy nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshlang'ich sinflarda topishmoqdan odatda, o'yin mashg'uloti tarzida foydalaniladi va u quyidagi qismlardan tashkil topadi:

- topishmoq o'yin mashg'ulotini e'lon qilish;
- shartlarini tushuntirish;
- topishmoqni aytish (buni yo tarbiyachining o'zi yoki topishmoq aytishuvida ishtirok qilayotgan bolalar navbatma-navbat bajarishlari mumkin);
- javobini e'lon qilish;
- javobni dalillash;
- o'yin qatnashchilarini rag'batlantirish.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar tashqi olam, turmush detallari, o'simliklar va hayvonlar dunyosi, tabiat hodisalari bilan ancha tanish bo'ladilar. Ular ayrim hayvonlarni (mushuk, it, quyon va hokazo), qush va parrandalarni (tovuq, xo'roz, g'oz, o'rdak, bedana va hokazo) parvarish qiladilar, o'ynatadilar, asraydilar. Bu yoshdagi bolalar gerbariy yig'adilar, fasllarni, undagi o'zgarishlarni bevosita kuzatadilar, har bir faslning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflay oladilar. Shuni nazarda tutib, ularga rang-barang mazmundagi topishmoqlarni bemalol aytish mumkin.

Ekologik mavzudagi xalq topishmoqlarini tanlashda, bolalarning yoshi, umumiy taraqqiyot darajasi, bola istiqomat qilayotgan mintaqaning hayvonot va o'simliklar olami, bolaning so'z boyligi, topishmoqda jumboqlanayotgan voqea, hodisa va narsaning xususiyatlariga muvofiq tushishini hisobga olish darkor. Topishmoqlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Yil fasllari va tabiat hodisalari haqidagi xalq topishmoqlari.
2. Hasharotlar haqidagi xalq topishmoqlari.
3. Parranda va qushlar haqidagi xalq topishmoqlari.
4. O'simliklar, ekinlar, daraxtlar haqidagi xalq topishmoqlari.
5. Hayvonlar haqidagi xalq topishmoqlari.
6. Osmon, yer, suv haqidagi xalq topishmoqlari.
7. Meva, sabzavotlar, poliz ekinlari haqidagi xalq topishmoqlari.

1. Yil fasllari va tabiat hodisalari haqida ham juda ko'p xalq topishmoqlari yaratilgan bo'lib, ular orqali bolalarning fasllar haqidagi bilimlarini tekshirish va yanada kengaytirish, har bir faslning o'ziga xos eng muhim xususiyatlariga diqqatlarini qaratish, ya'ni bahorda kunlarning isiy boshlashi tufayli o't-o'lanlarning ko'karib chiqishi, dov-daraxtlarning kurtak chiqarishi va gullashi, qushlarning uchib kelishi; yozda esa kunlarning nihoyatda isib ketishi, pishiqchilik boshlanishi, kuzga kelib dov-daraxtlarning barglari sarg'ayishi va to'kilishi, kunlarning asta-sekin qisqarib soviy boshlashi, qushlar va hasharotlarning kam ko'zga tashlanishi; qishda kunlarning sovuq bo'lishi, qor yog'ishi, suvlarning muzlashi kabi tabiat hodisalari to'g'risida ma'lumot berish mumkin. Masalan: Atrofimizdagi olam dars yoki tabiatshunoslik darslarida kuz tabiatini kuzatib, sayrdan qaytib kelgach, bolalar bilan suhbat o'tkazib, ularga quyidagi topishmoqni berish maqsadga muvofiq:

Qizil, sariq, tovlanar,
Yerga tutdek yoyilar. (Kuzgi barg)

Bu topishmoqning javobi «kuzgi barg» ekanligini topishga bolalar qiynalmaydilar. Chunki kuz tabiatini kuzatgan, tevarak-atrofdagi yuz berayotgan o'zgarishlarni-barglarning sarg'ayganini va asta-sekin yerga bitta-bitta uzilib tushayotganini o'z ko'zi bilan ko'rib qaytgan bolalar uchun topishmoqda aytilayotgan manzara notanish emas, shuning uchun topishmoqni eshitishlari bilan ular tasavvurida darhol kuz tabiati jonlanishi tabiiy. Sababi topishmoqdagi «sariq tovlanar», «yerga yoyilar» kabi jumlar «kuzda barglarning sarg'ayib, yerga bitta-bitta uzilib tushishiga» to'la ishoradir.

Rangi oppoq,
Pardek yumshoq.
Quyosh ko'rsa,
Erir shu choq. (Qor)

Bu topishmoqni qishda, bevosita qor yog'ayotganini bolalar bilan kuzatayotib, ular e'tiboriga havola qilish mumkin. Ko'rinyaptiki, topishmoqda qorning oq rangda bo'lishi, yumshoqligi, issiqqa bardosh berolmay, tezda erib ketishi, shuning uchun sovuq qish kunlarida yoyishi haqidagi bilimlar to'la o'z aksini topgan.

Shuningdek, topishmoqlar vositasida yomg'ir, shamol, momaqaldiroq kabi tabiat hodisalari qachon va qay holatda yuz berayotgani haqida ma'lumot berish mumkin.

Shunday topishmoqlar ham borki, ular orqali bolalar yil fasllarining almashinishi bilan bog'liq o'zgarishlar tabiat qonuni ekanligini his etadilar hamda ularning miqdori va sifatiiy o'zgarishlari haqida ma'lumot oladilar. Jumladan, quyidagi topishmoqlar fikrimizning yorqin dalilidir:

Kelib ketar bir yilda,
To'rt og'ayni har xilda.

Yoki:

Bir onasi bor, o'n ikki bolasi bor.

Xullas, yil, fasllar va oylar soni, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari, tabiat hodisalari haqida yaratilgan xalq topishmoqlari orqali bolalarga tez va oson bilim berish va ularning bu boradagi tasavvur-tushunchalarini yanada boyitish mumkin:

Bola kelar, bola kelar,
Ilk mehr ola kelar.
Siylab-siylab daraxtlarga,
Guldan marjon taqa kelar. (Bahor)

Bu topishmoqda esa «bahor» fasli «daraxtlarga marjon taqa kelar» ifodasi orqali metaforik, yahni shartli ko'chim tilida yashirin aytilayotgani sezilib turibdi.

2. Hasharotlar haqidagi topishmoqlar. o'zbek xalq topishmoqlari orasida hasharotlar haqidagi topishmoqlar talaygina qismni tashkil etadi. Bu hasharotlarning ayrimlari bolalarga tanish bo'lsa, ayrimlari notanishdir. Masalan, ari, chumoli, pashsha, o'rgimchak, ipak qurti xususidagi topishmoqlarga javob topish ularga jiddiy qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki bu hasharotlarni bolalar tez-tez ko'radilar yoki bu haqda ko'p eshitadilar.

Biz hasharotlar haqidagi xalq topishmoqlaridan foydalanib, quyidagicha dars mashg'ulotini o'tkazishni tavsiya etamiz. (Atrofimizdagi olam yoki tabiatshunoslik darslari yuzasidan)

Maqsad: Bolalarning hasharotlar turlari, ular yashaydigan muhit haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish; har bir hasharot turiga xos belgilarni (katta-kichikligi, tanasi va tana qismlarining o'ziga xosligi, rangi, tovushi, harakatlanish usuli kabilarni) farqlashga, foydasi va zarariga ko'ra ularni ajrata olishga o'rgatish, foydali hasharotlarning nima bilan ovqatlanishi, qanday parvarish qilinishi haqida mahlumot berish.

Darsni tashkil etish: asalari, ipak qurti, chigirtka, ninachi, tilla qo'ng'iz, kapalak, pashsha, o'rgimchak tasvirlangan rasmlar tayyorlash (asalari katakchalari, har xil ipak matolar).

Darsning borishi:

O'qituvchi: Bolalar, bugun biz hasharotlarni o'rganish, ular haqidagi bilimlarimizni sinab ko'rish uchun topishmoq aytishuvi o'tkazamiz. Aytishuvda faol qatnashganlar rag'batlantiriladi. Qani toping-chi, mana bu topishmoq qaysi hasharot to'g'risida:

Tut bargidan o'zga ovqat
Ko'rinmaydi ko'ziga.
Shoxi bo'lar, atlas bo'lar,
Foydasi yo'q o'ziga.

Bolalar:- Bu - ipak qurti. Chunki ipak qurtini odamlar tut bargi berib, maxsus boqishadi.

O'qituvchi bolalarga rasmlar orasidan ipak qurti tasvirini topib ko'rsatishni buyuradi va «menga ipak qurti to'g'risida bilganlaringizni gapirib beringlar» deb murojaat qiladi. Qiynalgan bolalarga quyidagi savollar bilan yordam beradi: «Ipak qurti dastlab qanday ko'rinishda bo'lar ekan» (qurt ko'rinishida), «U nima bilan ovqatlanarkan» (tut bargi bilan), «Ipak qurtini nima uchun boqishadi» (pilla olish uchun), «Pilladan nima olinadi» (ipak olinadi), «Ipakdan nimalar tayyorlanadi» (shohi, atlas, matolar tayyorlanadi).

Bu o'rinda ipak qurti haqida yaratilgan boshqa qisqa hajmli, kam so'zli topishmoqlardan ham o'qituvchi foydalanishi mumkin:

Tutdan bizga ko'ylak to'qir

yoki:

Ko'k yeb, oltin o'raydi.

Ko'rinayaptiki, ularning barchasida ham ipak qurtining asosiy belgisi tut bargidan oziqlanib, ipak to'qishi inobatga olib yaratilgan. Shuning uchun ipak qurtiga xos ana shu asosiy belgini bolalar xotirasiga singdirishda ushbu topishmoqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi: - Bilasizlarmi, hasharotlardan asalari, o'rgimchak, pashsha, kapalak, chumoli haqida yaratilgan xalq topishmoqlari juda ko'p. Sizlar shulardan qaysi biri haqida topishmoq bilasiz.

1-o'quvchi: Men asalari haqida shunday topishmoq bilaman:

Guldan gulga qo'nadi,
Sharbat yig'ib yuradi.
Yig'ib o'zi yemaydi,
Uyasiga to'playdi.

2-o'quvchi: - Men o'rgimchak haqida topishmoq aytmoqchiman:

To'r ustida yashaydi,
Pashshani o'rab tashlaydi.

O'qituvchi: - Sen o'rgimchakni ko'rib, kuzatganmisano' Qani, u haqda bizga gapirib berchi.

2-o'quvchi: - o'rgimchak uylarning burchagida, iflos joylarda bo'ladi. Agar uy supurilmagan, tozalanmagan bo'lsa, darhol o'sha yerlarga in qurib oladi. Uning ini to'qilgan to'r ko'rinishida bo'ladi. U o'zi ovlagan boshqa hasharotlar, masalan, chivin, pashsha, chumoli kabilarni o'z turlari bilan o'rab oladi.

O'qituvchi: - Bolalar, biz yuqorida nomlarini sanab o'tgan hasharotlardan, ya'ni asalari, o'rgimchak, pashsha, kapalak, chumoli kabilardan qaysilari insonga foyda keltiradi-yu, qaysilari zarar keltiradi, bilasizlarmi ?

O'quvchilar: Asalari asal beradi, shuning uchun foydali. o'rgimchak, pashsha kabilalar yomon. Chunki pashsha chaqib, odamning qonini so'rib oladi, o'rgimchak esa uyni ifloslantiradi.

O'qituvchi: - Bolalar, menga barcha fikrlaringiz ma'qul. Sizlar to'g'ri aytayapsiz. Endi men sizlarga yuqorida nomlari aytib o'tilgan hasharotlardan yana biri haqida topishmoq aytaman. Qani, toping-chi, bu topishmoqda qaysi hasharot yashiringan

Mitti, ori q otim bor,
Beli ingichka qilday.
Ammo turmaydi bekor,
Ishda qudratli filday. Bu. . .

O'quvchi: - Chumoli!

O'qituvchi:- To'g'ri. Chumoli ekanini qanday sezdingiz?

O'quvchilar: - Chumolilarning beli ingichka bo'ladi, ular doimo u yoki bu narsani u yoqdan bu yoqqa tashib yurishadi.

O'qituvchi: - Ha, balli! Demak, bolalar, guvohi bo'ldingizki, topishmoqlarda yashiringan narsaning nomini to'g'ri topa olar ekansiz.

Shunday qilib, bugungi mashg'ulotimizni tugatamiz. Kelgusi mashg'ulotimizda endi ninachi, xon qizi, chigirtka kabi hasharotlarni ushlab olib, ularning ko'rinishi, o'ziga xos belgilari bilan yaqindan tanishamiz.

3. Parranda va qushlar haqida. Parranda va qushlarga doir topishmoqlar kichik maktab yoshdagi bolalarning asosiy qiziqish obyektlaridan biridir. Ularning ba'zilarini hatto bolalarning o'zlari bevosita boqishlari mumkin. Shuning uchun ko'pgina parranda va qushlarning belgilari bolalarga juda tanish bo'lib, ularni yechish jiddiy qiyinchilik tug'dirmaydi.

Parranda va qushlar haqidagi topishmoqlar bolalarning mavjud bilimlarini yanada boyitadi.

Tarbiyachilar mashg'ulotda avval bolalarga tanish parranda va qushlar haqidagi topishmoqlarni, so'ngra notanish hayvonlarga oid topishmoqlarni berishlari maqsadga muvofiq.

Parranda va qushlar haqidagi topishmoqlardan foydalanib, shunday ko'rinishda dars mashg'ulotini tashki qilish mumkin.

Darsning maqsadi: Kichik maktab yoshdagi bolalarni qush va parrandalarning turlari bilan tanishtirish, shulardan qaysilari bevosita o'lkamizda mavjudligini bildirish. Beozor va yirtqich qushlar haqida ma'lumot berish, foydali qushlarni asrab-avaylash, ularga nisbatan mehribonlik va g'amxo'rlik ko'rsatish zarurligini tushuntirish, parranda va qushlarni uy sharoitida parvarish qilish bo'yicha ko'rsatmalar berish, parrandalardan olinadigan iste'mol tovarlarining foydalari haqida ma'lumotlar berish.

Mashg'ulot jihozlari: Turli qushlar va parrandalarning rangli rasmlari, maxsus uyada boqilayotgan to'ti, kanareyka, bedana kabi qushlar, tovuq, xo'roz, ayrim yirtqich qushlarning yumshoq va qattiq o'yinchoqlari, parrandalardan olinadigan iste'mol tovarlari ko'rgazmasi: par yostiqliq, tuxum, tuxumli pechenye namunalari, kitoblari.

Darsning borishi:

O'qituvchi: - Bolalar, bugun biz sizlar bilan «Qanotli do'stlarimiz» - qushlar va parrandalar olamiga «sayr» qilamiz va ular haqida kim qancha bilishini topishmoqlar orqali sinab, aniqlab olamiz. Men hozir sizlarga mana bu ko'rgazmada qo'yilgan qushlar, parrandalar haqida topishmoqlar aytaman, sizlar esa ularning yo rasmini yo o'zini topib, menga ko'rsatasiz va biz shu orqali topishmoqda yashiringan «Qanotli do'stlarimiz»nomini aniqlaymiz.

1-topishmoq: - «Boshi taroq, dumi o'roq» nima ?

Bolalarning deyarli ko'pchiligi baralla: «Xo'roz» deb baqirishadi va katak ichida gerdayib turgan xo'rozga ishora qilishadi. O'qituvchi bolalardan biriga «Nima uchun bu topishmoqning javobi «xo'roz» bo'ladi» - degan savol bilan murojaat qilib, javob oladi.

2-topishmoq: Udir bahor elchisi, yangi kunning kuychisi,

Har xonadon mehmoni, o'ylab ko'ring-chi,

Qani

Chug'urlab qo'shiq yozar, u juda ham beozor.

Bu nima

O'quvchilar: - Qaldirg'och!

O'qituvchi: - Qaldirg'och ekanini kanday bildingiz?

O'quvchi: - «Bahor elchisi» degan so'zdan. Chunki birinchi bo'lib, qushlar orasida qaldirg'och uchib kelishini o'zingiz aytgan edingiz-ku. Shu esimga tushib ketdi. O'qituvchi bu bolaning mantiqli javobini rag'batlantiradi.

3-topishmoq: Bir qushim bor top zotin,

o'zi aytar o'z otin. (Kakku)

Bolalar javob topa olmaydilar. Shunda o'qituvchi ularga yordamga keladi. Kakku shaklidagi yumshoq o'yinchoqdan foydalangan holda kakkuning ovozi bolalarga eshittiradi,

ko'rgan kino va multfilmlarini eslashni buyuradi. Bolalar kakku haqida unutilmas xotiraga ega bo'lib qoladilar.

4-topishmoq: «Laylak» haqida aytiladi.

Bo'yni uzun oz emas,
U ketgan kun yoz emas,
Oyoqlari bir quloch,
Ilona ko'p ko'zi och.

Bolalar bu topishmoqda yashiringan qush «laylak» ekanligini topishmoqdagi «bo'yni uzun», «oyoqlari bir quloch», «ilona o'ch» iboralari orqali darhol payqadilar.

5-topishmoq: «o'rdak» haqida aytiladi.

Rangi har xil, kul rang, oq,
Oyoqlari yung paypoq,
Yerda yuradi asta,
Suvda suzishga usta.

O'qituvchi yordamida bolalar bu topishmoqqa ham to'g'ri javob topganlaridan so'ng, ularga parrandalarining va qushlarning asosiy belgisi-qanoti mavjudligi, shu qanoti tufayli ular havoda ucha olishi, insonlarga foydasi, yirtqich qushlarning xususiyatlari, qushlar va parrandalarining parvarish etilishi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqatlar, yashash sharoiti haqida yanada chuqurroq ma'lumotlar berildi.

Bolalarning o'zlaridan ham qushlar va parrandalar haqida biladigan topishmoqlar so'rab olinadi. Mashg'ulot so'ngida bolalar bilan «Fozlarim» o'yini o'ynaladi.

Mashg'ulotda faol qatnashgan bolalar rag'batlantiriladi va barcha bolalar tovuq tuxumi solib pishirilgan pecheno'ye bilan mehmon qilinadi. Buning rahmati evaziga ular o'z qo'llari bilan katakdagi tovuqqa don sepib, suv berdilar.

4. O'simliklar, ekinlar, daraxtlar haqidagi topishmoqlar. Ko'pgina o'simliklar, ekinlar, daraxtlar bolalarga yaqindan tanish bo'lib, ularga javob topish, birinchidan, juda qiziqarli bo'lsa, ikkinchidan, uncha murakkab emas. Ammo shunday daraxt turlari, o'simlik va ekinlar ham borki, bolalar ularni shaxsan ko'rmagan, ular haqida tasavvurga ega bo'lmasliklari mumkin. Shuning uchun tarbiyachilar bolalarni o'simliklar, ekin va daraxtlar bilan tanishtirish jarayonida xalq topishmoqlaridan foydalanmoqchi bo'lsalar, albatta, bunda topishmoq tanlashda ehtiyot bo'lishlari va bu muammoni e'tiborga olishlari zarur. Muhimi, ko'proq bolalarning daraxt va o'simlik, ekin turlari bilan qay darajada tanishliklarini hisobga olmoq lozim. Agar topishmoqda yashiringan o'simlik, ekin va daraxtning nomi bolalarga notanish bo'lsa, ular xususida umumiy ma'lumot berilishi maqsadga muvofiqdir. Bu ma'lumot, shubhasiz, ularning tasavvurlarini kengaytiradi va topishmoqqa javob topishlarini osonlashtiradi.

Ma'lumki, bolalar tabiat shaydosidirlar. Ular ko'proq tabiat bag'rida, o'tloqlarda, daraxt soyalarida, bog'larning so'lim joylarida o'ynashni juda yoqtiradilar. O'z o'yinlari jarayonida hatto ba'zi giyohlarni, gullarni, daraxt novdalarini bilib-bilmay yulib olib, ulardan o'yin vositasi sifatida foydalanadilar, o'tloqlarni toptaydilar, daraxt shoxlarini sindiradilar. Kezi kelganda ba'zi bog'lardagi mevali daraxtlarga tosh otib, pishgan-pishmagan mevalarni uzib olib, isrofgarchilikka yo'l ham qo'yadilar. Shuning uchun bolalarga o'simlik va daraxtlarning inson hayotidagi rolini, ularning atmosfera havosini tozalab, yangilab turishdagi ahamiyatini uqtirish, ko'pgina oziq-ovqat va istehmol tovarlari bevosita o'simliklardan, daraxtlardan, turli ekinlardan olinishini tushuntirish juda muhim masala bo'lib, bu borada xalq topishmoqlari ushbu ta'limiy-tarbiyaviy ishni osonlashtiruvchi eng asosiy metodik vosita sifatida xizmat qila oladi.

O'simliklar, ekinlar, daraxtlar xaqida juda ko'p xalq topishmoqlari yaratilgan bo'lib, ular o'z tarkibiga gullar, o't-o'lanlar, mevali va mevasiz (manzarali) daraxtlar, paxta, makkajo'xori, bug'doy kabi hosil beruvchi ekinlar haqida yaratilgan topishmoqlarni qamrab oladi. Gullar haqida yara-tilgan topishmoqlarda gullarning hidi, rangi, ko'rinishi, chiroyi inobatga olinsa, giyohlar va o't-o'lanlar haqida yaratilgan topishmoqlarda ularning inson uchun foydali yoki zararli tomonlari, unib-o'sish muhiti, shakl-shamoyili, daraxtlarning esa ko'rinishi, gullashi, mevasi yoki manzaraviyligi hisobga olingan bo'ladi. Ekinlarning esa ko'proq inson uchun

iste'mol tovari ekanligi haqida gapiriladi. Demak, shu belgilari asosida bolalarga ular haqida ma'lumot berish yoki mavjud bilimlarini mustahkamlash mumkin.

Daraxtlar haqida yaratilgan xalq topishmoqlaridan mevazor bog'larga yoki istirohat bog'lariga qilingan ekskursiya davomida o'tkazilgan suhbat jarayonida yohud aksincha bolalarning ekskursiyadan olgan taassuroti asosida o'tkazilgan suhbat vaqtida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'simlik va gullar haqida yaratilgan xalq topishmoqlaridan esa o'tloqlar bag'rida, gulzorlar atrofida o'tkazilgan sayr davomidagi suhbat vaqtida foydalansa bo'ladi. Qishda esa bunday mashg'ulotlar xonaki o'simliklar o'stirilgan tabiat burchagi oldida o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Bularning barisi bolalarning o'simliklar dunyosi haqidagi bilimlarini boyitish, ularni parvarish va ehtiyot qilishga o'rgatishda yordam beradi.

Ekinlar haqida yaratilgan topishmoqlarni bolalar ehtiboriga qishloq sharoitida bo'lsa-bevosita o'sha ekin ekilgan dalada, shahar sharoitida esa-maktab tajriba yer uchastkasida havola etilsa, bolalarning kuzatuvchanlik asosida o'z fikr-mulohazalarini ma'lum mantiqiy markazga to'plab, shundan so'ng chiqargan xulosalarini ishonch va dadillik bilan e'lon eta olishlariga zamin hozirlaydi.

Qish sharoitida ekinlar haqida aytiladigan topishmoqlarni bevosita shu ekin turi tasvirlangan rasmlardan foydalanib, bolalarning javobini asoslashda foydalanish mumkin. Bunda bolalarga topishmoqda aytilayotgan ekin yoki o'simlik turiga xos asosiy belgilar bilan rasmda tasvirlangan o'sha ekin yoki o'simlik belgilarining mos tushuvchi belgilarini aniqlash, taqqoslash vazifasi ham yuklatilsa, yanada foydaliroq bo'ladi.

Kichik maktab yoshdagi bolalar ekin va o'simliklar turlarini shahar yoki qishloq sharoitida yashashdan qat'iy nazar, asta-sekin bilib olishlari zarur. Bunda ularga xalq topishmoqlari yaqindan yordam beradi. Chunki xalq topishmoqlarida ularning eng asosiy belgi-xususiyatlari sodda, lekin badiiy tarzda atab kelinadi. Ana shu belgi xususiyatlariga qarab bolalar paxtani bug'doydan yoki jo'xorini sholidan, pomidorni bodringdan ajrata oladilar.

5. Hayvonlar haqidagi topishmoqlar. Hayvonlarga doir topishmoqlar ham bolalarga juda qiziqarli va tanish. Chunki ular kichik yoshdan boshlab, ayniqsa, uy hayvonlariga juda katta mehr qo'yadilar va ularga g'amxo'rlik qiladilar.

Topishmoqlar orqali bolalar hayvonlarning yashash sharoiti, tabiati, shakl-ko'rinishi, ovqatlanishi bilan tanishadilar. Ko'pgina uy hayvonlarining bolalarga tanishligi shu xususdagi xalq topishmoqlariga javob topishda qulaylik yaratadi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, hayvonlar olami juda keng va rang-barang. Ayrim yirtqich hayvonlar borki, bolalar uni yo hayvonot bog'ida ko'rgan, yo rasmlar orqali taniydi. Bunday topishmoqlarni aytishdan oldin o'qituvchining kirish suhbatini zarur. Bu suhbat o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro savol-javobi shaklida bo'ladi. Masalan:

O'qituvchi:- Bu rasmda nima tasvirlangan

O'quvchi: - Fil.

Tarbiyachi:- Sen filni ko'rganmisan, qanday taniding, balki bu sherdir.

Bola: - Yo'q bu- fil. Men filni multfilmlarda ko'rganman. Bu sher emas. Chunki filning ana shunday uzun xartumi bor. U, asosan, ana shu xartumi bilan barcha ishlarni qiladi: narsalarni ko'taradi, ovqatini yeydi. Uning gavdasi va oyoqlari ham bo'ladi. SHerning esa bo'ynida qalin sochlari bo'ladi.

O'qituvchi bolaning gaplarini yana to'ldiradi.

Bunday kirish suhbatlar bolalarga odatda notanish bo'lgan hayvonlar, o'simliklar va boshqa tabiat hodisalari va predmetlari haqida ma'lumot berilayotganda o'tkazilsa, o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi. Bolaning dastlabki tasavvur-tushunchalarini mustahkamlashga va boyitishga yordam beradi.

6. Osmon, yer, suv haqidagi topishmoqlar. Ma'lumki, osmon, yer, suv haqidagi xalq topishmoqlari bolalarga nihoyatda yaqin va tanish bo'lib, ularga javob topish bola uchun jiddiy qiyinchilik tug'dirmaydi. Suv tabiatda eng keng tarqalgan va kerakli modda ekanligini bola ham yaxshi biladi. Chunki u chanqab, suv ichgisi kelganida, uning qadrini, foydasini anglaydi. Bola

suv, yer, osmon bilan deyarli har kun uchrashadi. Har kun ularni kuzatadi. Shuning uchun ularga suv, yer, osmon va uning yoritgichlarining belgilari bir muncha tanish. Shu sababli biz eksperimental material sifatida kichik maktab yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish jarayonida osmon, yer, suv, osmon yoritgichlari haqida yaratilgan xalq topishmoqlarini ham tanlab olib, shu asosda bolalarni tevarak-atrof bilan yanada yaqindan tanishtirishni, suv va yer resurslarini asrab-avaylash muhimligini anglatishni maqsad qilib belgiladik. Zotan, bu mavzularda o'tkazilgan mashg'ulotlarda biz osmon yoritgichlari, yer haqida yaratilgan quyidagi xalq topishmoklaridan foydalandik:

a) osmon yoritgichlari haqida

- 1) Ko'k sandig'im ochildi, ichidan zar sochildi.
- 2) Oq sandiq ochildi, olamga nur sochildi (osmon, quyosh).
- 3) Uzoq tog'da o't yonar (quyosh).
- 4) Bir parcha patir, olamga tatir (oy).
- 5) Onasi bitta, bolasi mingta (oy va yulduzlar).
- 6) Kattakon zontik, ranglari ko'm-ko'k,
- 7) Ostiga sig'ar ko'p odam, ular yurar tim-tik (osmon).

b) yer haqida:

- 8) Zar gilam, zar-zar gilam,
Ko'taray desam, og'ir gilam.
- 9) Katta gilam, qoqay desam og'ir gilam (yer).

b) suv va suvliklar haqida:

- 10) o'yib oldim, izi yo'q.
- 11) o'zi bor, soyasi yo'q.
- 12) Oqib kelar shaldirab,
Oynadayin yaltirab.
- 12) Yurib-yurib tolmaydi,
Orqaga qarolmaydi (suv).
- g) shamol haqida:
- 13) Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
- 14) Qanoti yo'q-uchadi,
Oyog'i yo'q-qochadi.
- 15) Qo'lda turmas, ko'zga ko'rinmas.
- 16) Oyog'i yo'q, qo'li yo'q, har tomonga uchadi.
Ko'rinmasdan soyasi, eshiklarni ochadi (shamol).

d) yil fasllari haqidagi topishmoqlar

- 17) Yerni yorib binafsha,
Chiqdi urib bir aksa.
Qaysi fasl -bu fasl,
Havosi soz, ko'p asil.
- 18) Siylab-siylab daraxtlarga,
Guldan marjon taqa kelar (bahor).

Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ushbu topishmoqlar so'zlarining kamligi, bolalarga tushunarli tilda yaratilganligi tufayli bolalar ularni tez va oson tushunib, javob topib, hatto yodlab olishga ham erishdilar.

7. Meva, sabzavotlar, poliz ekinlari haqidagi xalq topishmoqlari. Meva, sabzavotlar va poliz ekinlari xilma-xil bo'lgani kabi ular haqida yaratilgan xalq topishmoqlari ham juda ko'p va xilma-xildir. Ularning biri ikkinchisini takrorlamaydi va har biri mustaqil bir asar sifatida yashaydi. Bu xalq topishmoqlari meva, sabzavot va poliz ekinlarining turlarini, rangini, ko'rinishini, daraxtda yoki yerda ko'karib turish holatini badiiy tasvirlaydi. Agar bola aytilgan belgilarni umumlashtira olsa, yashiringan narsa uning tasavvurida jonlanadi. Bu esa, o'z navbatida, bolalar mushohadalarini umumlashtirishga, fikrlab xulosa chiqarishga o'rgatadi hamda ularga meva, sabzavot va poliz ekinlarining turlarini, ularning o'zaro farqlarini bilib

olishlariga imkon beradi. Biz tajribamiz davomida poliz ekinlari, meva va sabzavotlar haqidagi xalq topishmoqlaridan foydalanib, shunday didaktik o'yin o'tkazdik. O'yin «Shunday mevani top», «Shunday sabzavotni top», «Shunday poliz ekinini top» ko'rinishida bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Shulardan «Shunday sabzavotni top» didaktik o'yini quyidagi ko'rinishda o'tkazildi:

O'yinning vazifasi: Sabzavotlarning turlarini tanishga va har biriga xos belgilarini farqlashga o'rgatish.

O'yin jihozlari: sabzi, piyoz, kartoshka, sholg'om, karam, garmdori kabi sabzavot namunalari.

O'yinning borishi: O'qituvchi bolalarga sabzavot turlarini ko'rsatib, ulardan qanday sabzavotligini so'raydi. Bolalar sabzavot nomini aytishadi. Yoki bu sabzavotlardan qaysi biri «sholg'om» deb so'raydi. Bolalar bu savolga javob berish uchun o'sha sabzavotning oldiga borib, uni ko'rsatishlari kerak. O'yin shu tariqa bolalar hamma sabzavotlarni yaxshilab topib olgunlariga qadar davom etadi. So'ngra tarbiyachi bolalarga shu sabzavotning har bir turi haqida quyidagi topishmoqlarni aytadi:

- 1) Yer tagida qizil bo'g'cha (sholg'om).
- 2) Yer tagida oltin qoziq,
U hammaga bo'lar oziq (sabzi).
- 3) Qavat-qavat to'ni bor,
Tugmasi yo'q (karam).
- 4) Pak-pakana bo'yi bor,
Qavat-qavat to'ni bor.
To'nini yechay desam,
Ko'zim yig'laydi zor-zor (piyoz).
- 5) Bir barmoqcha bo'yi bor,
Achchiq qizil to'ni bor (garmdori).
- 6) Bir nechtdan ko'zi bor,
Olma kabi yuzi bor (kartoshka).

O'yin oxirida bolalarga «osh» rasmini ko'rsatib, bu ovqatga yuqorida nomlari sanab o'tilgan sabzavotlardan qaysi biri ko'proq ishlatilishini so'raydi. Bolalar bir ovozdan «sabzi» deb javob berishadi. Shundan so'ng o'qituvchi bolalarga qaysi sabzavotdan yana qanday taomlar pishirilishi haqida gapirib o'tadi.

Bolalarni mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida, ularni sabzavot va mevalar sotiladigan do'konga yoki bozorga, polizga mevazor boqqa yohud meva va sabzavotlarni qayta ishlash va quritish korxonasiga ekskursiyaga olib borish yanada samaraliroq natijalar beradi.

Umumiy xulosalar

Yoshlarni ekologik tarbiyalashda maktab asosiy markaz hisoblanadi. Ekologik tarbiya umumta'lim maktablarining barcha bosqichlarida, ma'lum bir fanlarni o'rganish, shuningdek o'quvchilarning darsdan tashqari ijtimoiy foydali mehnati, o'quvchilarning amaliy faoliyatlari jarayonida amalga oshiriladi.

O'quvchilarning ekologik bilim, malaka va ko'nikmalari, tabiatga mehr-muhabbati ayniqsa, boshlang'ich sinf yoshida darsdan tashqari mashg'ulotlarda samarali amalga oshiriladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat va jamiyat hodisalariga qiziqish, kattalarga nisbatan o'zgacha kechadi; o'zining o'qishi, o'ynashi, mehnat qilishi uchun qulay muhit yaratishga alohida e'tibor qiladi; o'simlik va hayvonot olamiga qiziqishi, mehr-muhabbati kuchli bo'lib, ular bilan do'stlashishga, do'stona muloqot qilishga, ijobiy xatti-harakatlariga taqlid qilishga mayli kuchli bo'ladi; shuningdek ular agrof-muhit go'zalligidan, har bir tabiat mo'jizasidan zavqlana olish, ilhomlanish qobiliyati kuchliligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Oilada, maktabda, jamoat joylarida o'simlik va hayvonot olamiga, tabiatga ayovsiz munosabatda bo'lganlarga, atrof-muhit tozaligi-ozodaligiga putur yetkazganlarga nisbatan o'zlarining salbiy munosabatlarini yaqqol ifoda etadilar.

Bu yoshdagi o'quvchilar ilmiy bilimlarini ham hayotiy misollar va tabiat voqea-hodisalari timsoli vositasida o'zlashtirishga harakat qiladilar. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini talabi, ehtiyoji, mayli, qiziqishi va hissiyoti asosida darsdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik tarbiyalash muhim ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiya berishning mavjud axvolini ilmiy tag'lil etish bizni shunday xulosaga olib keldiki, biz tanlagan mavzu pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biriga bag'ishlangan.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining xalq topishmoqlarini bilish darajasini takomillashtirish ko'p jihatdan ularning psixik rivojlanishi (xotira, diqqat, sezgi, nutq, tafakkur) umumiy mantiqiy fikrlash darajasi bilan uzviy bog'liqdir.
3. O'quvchilarning ekologik mavzularda topishmoq to'qish malakalarini takomillashtirish, jumboqlanayotgan narsa(predmet, voqea, xodisa) ning muxim xususiyatlarini aytish, turli sg'z g'yinlarini tashkil etish, tabiat qg'ynida sayr qilish, meg'nat qilish, bolalarda kuzatuvchilik, sezgirlik va ijodkorlikni tarbiyalash, xalq topishmoqlarini aytib, shunga monand topishmoqlar aytishni topshirish maqsadga muvofiqdir.
4. O'quvchilarning ekologik mavzudagi xalq topishmoqlariga javob topishini yaxshilash, topishmoqlar bilan muntazam ishlash, namoyish etiladigan vositalarni ishga solish, rasmlar, testlar, rebuslar va boshqotirmalardan foydalanish, gurug'lararo musobaqa va topishmoq kechalari uyushtirish, o'yin-tanlovini tashkil etish tadqiqot davomida kuzatildi.
5. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari boshlang'ich sinflarda topishmoqlarni ekologik tarbiya vositasiga aylantirish ancha samarali ekanligini to'la isbotladi. Bu, o'z navbatida, bolalarning ekologik bilimlarini oshirishga, ona-tabiatni asrab avaylashlariga, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirishga, eng muhimi, ijodiy fikrlashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: «O'zbekiston», 1997, 112 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008, 171b.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: «O'zbekiston», 2011, 430.
6. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMK, 1997. – 29 b.
7. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMK, 1997. – 61 b.
8. Abdullo Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent., 1994. – 237 bet.
9. Abduraximov. M. O'zbek topishmoqlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1991, 256 bet.
10. Abdurahmonov M. Tabiatga mehr-muhabbat. // «Boshlang'ich ta'lim», 1993, 5-6 qo'shma soni, 55 bet.
11. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. – T.: O'qituvchi, 1996. – 158 b.
12. Amir Temur o'g'itlari. – T.: Navro'z, 1992. – 63 b. (Amir Temur vasiyati. – T.: G'afur G'ulom, 1991. – 4 b.
13. Ahmedov B. Ajdodlar o'g'iti. – T.: Cho'lpon, 1991. – 113 b.
14. Bobur Z.M. Devon. – T.: Fan, 1994. – 143 b.
15. Bolalar adabiyoti // Xrestomatiya. o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun. Toshkent. «O'qituvchi», 1993. 271 bet.
16. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy, 1993. – 222 b.
17. Hasanboyeva O. Inoyatova M., Ne'matova A., Odobnoma. 2-sinf uchun darslik. T.: «O'qituvchi» 2012, 76 b. .
18. Isroilova X. Topishmoqlar o'ylashga chorlar. // «Boshlang'ich ta'lim», 1993, 9-10-sonlar, 60-64-betlar. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994. – 133 b.
19. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – T.: O'qituvchi, 1994. – 256 b.
20. Mahmudov T. Avesto haqida. – T.: Guliston, 2000. – 63 bet.
21. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Yangi avlod asri, 2003, – 211b.
22. Matjonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. «Yangi yo'l roligraf serves». 2011, – 235 b.
23. Munavvarov A. Q. Oila pedagogikasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1994. – 127 bet.
24. Navoiy A. Hayrat ul-abror. – T.: G'ulom, 2006. – 389 b.
25. Vatanni sevmoq iymondandur. – T.: Adabiyot va san'at, 1995. – 64 b.
26. Xoliqova M., Ergasheva Sh., Odobnoma. 4-sinf uchun darslik. «Yangi yo'l roligraf serves». 2011, – 92 b.
27. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. T.: O'qituvchi, 1995. – 478 b.
28. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. T.: O'qituvchi, 1999. – 478 b.
29. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2003. – 510b.
30. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z., T.: O'qish. 2-sinf uchun. «O'qituvchi». 2012, 170

www.ziynet.uz

www.pedagog.uz

www.kutubxona.uz

